

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
O‘zbek filologiyasi fakulteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrası**

SHARAPOVA OZODA

**GAZETA TILIDA LEKSIK-FRAZEOLOGIK SINONIMLARNING
QO‘LLANILISHI (“ZARAFSHON” GAZETASI MATERIALLARI
MISOLIDA)**

5220100 – Filologiya (o‘zbek filologiyasi) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar

o‘qit.I.Yoqubov

SAMARQAND - 2015

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

O‘zbek filologiyasi fakulteti

O‘zbek tilshunosligi kafedrası

SHARAPOVA OZODA

**GAZETA TILIDA LEKSIK-FRAZEOLGIK SINONIMLARNING
QO‘LLANILISHI (“ZARAFSHON” GAZETASI MATERIALLARI
MISOLIDA)**

5220100 – Filologiya (o‘zbek filologiyasi) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi

Bitiruv malakaviy ishi

Ilmiy rahbar

o‘qit.I.Yoqubov

Rasmiy taqrizchi

Bitiruv malakaviy ishi o‘zbek tilshunosligi kafedrasining 2015-yil ____-maydagi majlisida muhokama qilingan va YaDAKga himoya uchun tavsiya etilgan (9-son bayonnoma).

Kafedra mudiri

prof. A. Abdusaidov

Bitiruv malakaviy ishi YaDAKning 2014-yil ____ iyundagi majlisida himoya qilingan va ____ ball bilan baholangan (____-son bayonnoma).

YaDAK raisi

A‘zolari:

SAMARQAND - 2015

REJA:

KIRISH. Ishning umumiy tavsifi.

I BOB. O‘zbek tilshunosligida sinonimiya hodisasining o‘rganilishi va dolzarb muammolar.

- 1.1. Sinonimlarning o‘rganilishi va muammolar xususida.
- 1.2. Sinonimlarning semantik munosabati.

II BOB. Gazeta tilida leksik sinonimiya.

- 2.1. Gazeta tilida sinonimlarning o‘ziga xosligi.
- 2.2. Sifat turkumiga oid sinonimlarning ifodalanishi

III BOB. Gazeta tilida frazeologik sinonimiya.

- 3.1. O‘zbek tilida frazeologik sinonimlar.
- 3.2. “Zarafshon” gazetasida qo‘llanilgan leksik-frazeologik sinonimlar.

XULOSA

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

KIRISH. ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning bir qator asarlari, nutqlarida ommaviy axborot vositalari faoliyati uchun zarur vazifalar belgilab berilgan va ularning hozirgi holati baholangan. Prezidentimizning 2010 yil 12 noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatalari qo‘shma majlisida so‘zlagan “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” mavzuidagi ma’ruzasida ta’kidlanganidek, yurtimizda, avvalo, OAV rivojini ta’minlaydigan, demokratik talab va standartlarga to‘la mos keladigan mustahkam qonunchilik bazasi yaratildi. Faqat keyingi 10 yilning o‘zida bosma OAVning soni 1,5 barobar, elektron OAVning soni esa 8 barobar ko‘payib, bugungi kunda ularning umumiy soni 1200 taga yetdi.¹ Mustaqillik yillarida OAVning soni oshib borgan sari ularning huquqiy kafolatlanishi, jurnalistlarning janr imkoniyatlari va tildan foydalanish mahoratlarini ko‘rsatishlari uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Yurtimizdagi bunday munosabat, olamshumul rivojlanishlar OAV, jumladan, gazetaning jamiyatdagi roli, gazeta janrlarining tili va uslubini atroflicha o‘rganishni talab etadi.

Ma’lumki, bugungi kunda turli sohalarda davlatimiz rahbari boshchiligida o‘tkazilayotgan tub islohatlarning samarasini OAV bevosita ishtiroksiz tasavvur etish qiyin. Shu sababli jamiyat yangilanayotgan bir paytda OAV zimmasiga juda katta ma’sulyat yuklandi. Bunda, eng avvalo , ijodiy jamoa va uning rahbaridan o‘z ishiga ma’sulyat bilan yondashish, kasb mahoratini yuqori darajada egallash va uni takomillashtirib borish talab qilinadi. Shunday o‘zgarish va yangilanish jarayonini mamlakatimizdagi barcha viloyat gazetalarida, jumladan Samarqand viloyat hokimligi bosh nashri “Zarafshon” gazetasi faoliyati misolida yaqqol ko‘rish mumkin.

¹ Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Президент Ислам Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг қўшма мажлисидаги маърузаси. 12 ноябрь 2010 йил. «Халқ сўзи» газетаси, 13 ноябрь.

O'zbek tilshunosligida gazeta tilini o'rganish sohasida bir qator ishlar yaratilgan. Lekin «Zarafshon» gazetasi tili va uslubi maxsus ilmiy tadqiq etilmagan. Bugungi kun talabiga ko'ra «Zarafshon» gazetasida qo'llanilayotgan leksi - frazeologik sinonimlarning stilistik xususiyatlarini o'rganish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi va muammolar. XX asrning 60-yillariga kelib o'zbek tilidagi frazeologik –sinonimlar hodisasi ham o'rganila boshlandi. Jumladan, Sh. Rahmatullayev o'zining doktorlik dissertatsiyasining maxsus bobini frazeologik sinonimiyani tadqiq etishga bag'ishlangan edi.²

Shuningdek, tilshunoslikka doir ayrim darslik va qo'llanmalarda frazeologik-sinonimlar yo'l-yo'lakay tilga olingan hamda bir-ikkita misol keltirib, ularning leksik-frazeologik sinonimlardan farqi ta'kidlab o'tilgan, xalos.³

Turkiyshunoslikda bu mammoning mohiyati Z.Uraksin, A.Bolg'anboyev, A.Annamamedov, K.Mamedova kabi olimlarning ishlarida ochib berilgan.⁴

Ilmiy rahbarimiz A.Abdusaidovning tadqiqotlarida gazeta tilini o'rganishga doir obzorlar berilgan. Ana shu tadqiqotlarda qayd etilishicha, o'zbek tilshunosligida publisistik uslub, xususan, gazeta tili va uslubi, gazeta janrlarining o'ziga xos xususiyatlari K.Yusupov, A.Boboeva, S.Muhamedov, T.Qurbonov, A.Abdusaidov tomonidan ma'lum darajada tadqiq etilgan.

A.Abdusaidovning «Gazeta janrlarining til xususiyatlari»⁵ mavzuidagi doktorlik dissertatsiyasida Respublika va ayrim mahalliy gazetalar materiallari asosida gazeta janrlarining til xususiyatlari atroflicha tahlil qilingan. Keyingi yillarda OAVda nutq madaniyati masalalarini o'rganishga doir maxsus ilmiy tadqiqotlar yaratildi. Masalan, D.Teshaboevaning «Ommaviy axborot vositalari

² Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. - Тошкент: Фан, 1966. 47-131 бетлар.

³ Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан, 1992. 113-117 бетлар.

⁴ Маълумот қуйида манбадан олинди: Вафоева М. Ўзбек тилида фразеологик синонимлар ва уларнинг структурал-семантик таҳлили. Филол.ф.н. дисс. автореферати. – Тошкент: 2009. - 26 бет.

⁵ Абдусaidов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Докт.дис. автореф. – Самарканд, 2005. 48- бет.

tilining nutq madaniyati aspektida tadqiqi (O‘zbekiston Respublikasi OAV misolida)» mavzuidagi doktorlik dissertatsiyasi katta ilmiy ahamiyatga ega.

Gazeta tili sohasidagi tadqiqotlarda gazeta matnlarini leksik, frazeologik, grammatik, stilistik va adabiiy me’yorga rioya etish nuqtai nazaridan o‘rganilgan bo‘lsa-da, alohida olingan leksik birliklar, xususan, sinonimlarning xususiyatlari ham maxsus tadqiq etilgan. Gazeta tili va uslubini tadqiq etish sohasidagi tadqiqotlarda boshqa masalalar qatori, masalan, gazetada emotsionallik va ekspressivlikni ifodalash va jurnalistning tildan foydalanish mahorati kabi masalalar doirasida sinonimlar haqida ham fikrlar bildirilgan. Shuni hisobga olib, «Zarafshon» gazetasi materiallari asosida frazeologik- sinonimlarning ayrim xususiyatlarini yoritishga harakat qildik.

Tadqiqot manbai va tadqiq usullari. Malakaviy bitiruv ishida “Zarafshon” gazetasining Mustaqillik yillarida nashr etilgan materiallari asosida frazeologik-sinonimlarning xususiyatlari tahlil etildi. Tahlil uchun o‘zbek tilshunosligida mavjud ilmiy asarlar, darslik va qo‘llanmalar, gazeta tiliga oid maxsus tadqiqotlardan foydalandik. Ular tadqiq etgan usullarga tayanib ish ko‘rdik.

Malakaviy bitiruv ishining maqsad va vazifalari. Gazeta tili leksikasi davr bilan hamnafasligi, o‘ziga xos imkoniyatlari, frazeologik-sinonimlarning fikrni ta’sirchan ifodalashdagi rolini faktik misollar asosida imkoniyatimiz darajasida tahlil qilishga urindik.

Himoyaga olib chiqiladigan masalalar quyidagilar:

- o‘zbek tilidagi sinonimiya hodisasining keng tarqalish sabablarini aniqlash;
- o‘zbek tilshunosligida gazeta tili ma’lum darajada o‘rganilgan bo‘lsa-da, muammolar mavjud;
- frazeologik sinonimiya hodisasining tilshunoslikda o‘rganilishi masalasiga munosabat bildirish;

- leksik frazeologik- sinonimlarning xususiyatlaridan gazeta tilida unumli foydalanilgan;

-frazelogik- sinonimlar gazeta matnlarida emotsionallik va ekspressivlikni ifodalashda katta stilistik imkoniyatlarga ega;

- bugungi kun “Zarafshon ” gazetasida leksik frazeologik-sinonimlarni semantik xususiyatlarini aniqlash.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Malakaviy bitiruv ishimizda leksik frazeologik -sinonimlarning xususiyatlari “Zarafshon” gazetasi materiallari asosida maxsus o‘rganildi. Gazeta matnlarida frazeologik-sinonimlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan foydalanish ma’lum darajada yoritildi. Mazkur ish materiallaridan kelgusida kurs ishi, referat ishi va maxsus ilmiy maqolalar yaratish uchun foydalanish mumkin, deb hisoblaymiz.

1 BOB. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA

SINONIMIYA HODISASINING O‘RGANILISHI VA

DOLZARB MUAMMOLAR.

1.1. Sinonimlarning o‘rganilishi va muammolar xususida.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da sinonim, sinonimik, sinonimika , sinonimiya terminlariga quydagicha ta’rif berilgan:

Sinonim (yun- bir xil nomli) tlsh. Shakli bir xil, ma’nosi esa bir xil yoki biroz farqli bo‘lgan til birliklari qatoridagi bir xil til birligi.

Sinonimik tlsh. Bir-biriga sinonim bo‘lgan ma’nodosh. Sinonimik so’zlar.

Sinonimika tlsh. 1. Biror tilning sinonimlari majmui. O‘zbek tili sinonimikasi. 2. Leksikologiyaning sinonimlarni o‘rganuvchi bo‘limi.

Sinonimiya yun (bir xil nomga egalik) tlsh. Til birliklarining ma’no jihatidan yaqinlik, ma’nodoshlik hodisasi.⁶

H.Jamolxonov “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kitobning “ Leksik sinonimiya” qismida “Sinonimlar nutqda muhim uslubiy vosita sanaladi: ular nutqning ravon va ta’sirli bo‘lishni, fikrning aniq va obrazli chiqishini ta’minlaydi”, degan fikrni bayon etgan. “Tayanch tushunchalar” sifatida quydagilarni keltiradi.

Sinonimiya- leksemalarning bir xil ma’no anglatishiga ko’ra guruhlanishi.⁷

Sinonimik qator (sinonimik uya)- bir ma’no anglatishiga ko’ra guruhlangan sinonim so’zlar yig‘indisi.

Dominanta- sinonimik qatordagi betaraf ma’noli so’z.

Ma’no sinonimlari-bir umumiy ma’noga ega bo’lsa-da, ma’no qirralari bilan farqlanuvchi sinonimlar.

⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 3-жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 514-бет.

⁷ Жамолхонов Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили, 2-қисм. Лексикология ва Фразеология. Лексикография. – Тошкент, 2004. Ушбу китоб бўйича маълумотлар Интернет –Ziynet тармоғидан олинди.

Uslubiy sinonimlar-leksik ma'nolari ijobiy yoki salbiy munosabat ifodalovchi semalar bilan qoplangan sinonimlar.

Nutqiy sinonimlar—nutqning u yoki bu turiga xoslanganligi bilan farqlanadigan sinonimlar.

Sinonimlarning turli xususiyatlarini o'rganish sohasida o'zbek tilshunosligida bir qator yutuqlarga erishilgan. Shunga qaramasdan, akademik Azim Hojiyev sinonimlarning o'rganilishi tarixi haqida quydagicha mulohaza bildiradi: "Sinonimlar turli tillarda turli darajada o'rganilgan. Bu masala ayrim tillarda ancha to'la o'rganilgan bo'lsa, ayrim tillarda, jumladan, o'zbek tilshunosligida deyarli ishlanmagan. Tilshunoslikda bayon qilingan fikrlar bir-biriga ko'p hollarda mos kelmaydi. Bu holat, avvalo, sinonimlarning ta'rifida ko'zga tashlanadi".⁸

Sinonimlar va ulardan foydalanishga e'tibor uzoq davrlardan boshlangan. O'z davrida buyuk mutafakkir va shoir, tilshunos va adabiyotshunos olim Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida sinonim so'zlarning nutqni boyitishdagi rolini chuqur tahlil qilib bergan edi. O'zbek tilshunosligida frazeologik-sinonimlarning turli xususiyatlarini o'rganishga e'tibor XX asrda ancha kuchayganligi kuzatiladi.

Rus tilshunosligida XX asrda sinonimiya hodisasi bo'yicha qilingan ishlar ko'lami jahon tilshunosligida qilingan ishlarga nisbatan ham salmoqli ekanligi ma'lum. Bu borada alohida ilmiy to'plamlar, jiddiy tadqiqotlar, monografiyalar vujudga keldi. XX asrning yetmishinchi yillarida E.Bolg'anboyevning "Qazaq tilidagi sinonimder" (Almati, 1970) monografiyasi yuzaga kelgan. O'zbek tilshunosligida akademik A.Hojiyev to'g'ri ta'kidlaganidek, bu hodisaga bag'ishlangan (lug'aviy sinonimlar ko'zda tutiladi) maxsus monografiya

⁸ Охунжонова О. Таълим босқичларида синонимлар мавзусини ўқитиш методикаси. Педагогика фанлари номзоди дис. автореферати. – Тошкент: 2009, 8-бет.

yaratilmagan edi. Albatta, affiksial va sintaktik sinonimiyaga oid monografiyalari yaratilganligi e'tiborlidir.

O'zbek tilshunosligida sinonimlarni atroflicha tadqiq qilish XX asrning 60-yillaridan boshlandi. U.Tursunov, N.Rajabov, S.Usmonov, S.Isamuhamedova, I.Qo'chqortoev, A.Hojiyev, Yo.Tojiyev kabi olimlar bu hodisani o'rganishga jiddiy kirishdilar.

Akademik A.Hojiyev tilshunoslikda keng tarqalgan bir qator qarashlarni o'rganib chiqqan holda sinonimiya hodisasiga o'ziga xos ta'rif berdi. Professor Yo.Tojiyev XX asrning 70-yillaridan so'ng rus va Evropa tilshunosligida paydo bo'lgan ta'riflar, talqinlarga suyangan holda, faqat lug'aviy sinonimlarnigina nazarda tutmasdan, umuman, bu hodisaga nisbatan boshqa bir ta'rif berishga harakat qildi.

A.Hojiyev "Birlashtiruvchi ma'nosi bir xil, talaffuz va yozilishi, shuningdek, qo'shimcha ma'no ottenkalari har xil bo'lgan so'zlar sinonim hisoblanadi" desa, Yo.Tojiyev "Tildagi alohida olingan birliklarning ayrim ma'nolariga ko'ra teng kelib qolishidan hosil bo'lgan til hodisasi sinonimlar deb ataladi", deydi.

R.R.Sayfullayeva, B.R.Mengliyev, G.H.Boqiyeva, M.M.Qurbonova, Z.Q.Yunusova, M.Q.Abuzalovanning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" nomli darsligining "Leksik-semantik munosabatlar" qismida sinonimik munosabatlarga doir qimmatli fikrlar bildirilgan.

Professor S.Karimov "O'zbek tilining badiiy uslubi» nomli monografiyasida sinonimlar to'g'risida e'tiborli fikrlarni bildirgan⁹. Sinonimlar bir tushunchani turli xil ma'no nozikliklari bilan ifoda qilishda undan foydalanuvchilar, xususan, shoir va yozuvchilar, jurnalistlar uchun muhim imkoniyatlardan biridir.

⁹Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби. Монография. (Масъул муҳаррир – Ўзбекистонда хизмат кўрсатган фан арбоби, филология фанлари доктори, профессор Раҳматулла Қўнғуров). – Самарқанд: «Зарафшон» нашриёти, 1992. -140 бет.

O'zbek tilshunosligida, yuqorida ham qayd etganimizdek, sinonimlarni o'rganish sohasida salmoqli ilmiy ishlar yaratilgan.¹⁰ Ular qatorida A.Doniyorov, A.Hojiyev, R.Qo'ng'urovlarning ishlari alohida ahamiyatga ega.¹¹

Darhaqiqat, leksik vositalar orasida sinonimlar tilimizning ijtimoiy va badiiy-estetik jilolarini namoyish qila olishi bilan eng muhim o'rinni egallaydi. Sinonimiyani nutqiy ijodning chegaralanmagan imkoniyatlarini yuzaga keltira oluvchi o'ziga xos maydon deyish mumkin. Shuning uchun ham A.M.Peshkovskiy va A.I.Efimov singari olimlar nutqiy vositalar sinonimiyasini o'rganishni stilistikaning markaziy muammolaridan biri deb hisoblaganlar.

Sinonimlar badiiy uslubda muhim stilistik vosita sifatida xizmat qilishini S.Karimov A.Hojiyevning «O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati» asosida qarab chiqib, diqqatga sazovor fikrlarni bildirgan. Masalan: quyidagi misollarga e'tiborni qaratdik:

agar – basharti. Basharti shahzoda uning tilagini hurmat qilsa, o'z ixtiyori bilan saltanatdan voz kechib, o'zini bus-butun ilm-fanga bag'ishlashni ko'ngliga tugib qo'ydi (O.Yoqubov. Ulug'bek xazinas).

aytmoq, – bayon qilmoq, izhor qilmoq: Pinhon siring bayon et, Ko'ksingni qilma ko'p qon (E.Vohidov. G'uncha), Men ham axir seningdek, Izhorishq etolmay, Ko'ksimda dudi ohim, Dashtlar aro quyuncha (E.Vohidov. G'uncha).

balog'at – kamol, kamolat: Senla birga javlon urib dunyoga kelgan, Senla o'sib shon yaratib kamolga yetgan (Zulfiya. Qurdosh qizga), Ishqchi, bahor giyohi kabi, Avj oladi, topar kamolot (Zulfiya. Muhabbat – bu...).

barg – yaproq: Bugun bosh ustingda yashnagan yaproq, Shovillab to'kilar erta poyingga (A.Oripov. Ko'pdan kutgan edim).

¹⁰ Бу ҳақда қаранг; Қўнғуров Р., Каримов С. Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маданияти. Библиографик кўрсаткич. – Самарқанд. 1984

¹¹ Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: 1974, 12- бет.

baxt — iqbol, saodat: Iqboli negun, baxti ham qora ekan mendek (Furqat. Sayding qo‘ya ber), Saodat garovi har qanday yumush, Xonzoda qiziday o‘tirma bekor (G‘.G‘ulom. Xotin).

begona – o‘zga, gayir, ag‘yor: O‘zga yurtda buncha qorong‘u, Uzun buncha tun? (Zulfiya. Tun).

butunlay — batamom, tamomila, tamoman: Shu kundan e‘tiboran o‘g‘limiz Abdulatif Samarqand taxtiga vorislikdin tamomila mahrum etiladi. («Ulug‘bek yulduzi» kinofilmidan); Bardosh bermas iroda, idrok, Tamoman lol aql, tushuncha (Zulfiya. Ne baloga etding muftalo).

Professor S.Karimovning ta‘kidlashicha, har bir milliy tilda, jumladan, o‘zbek tilida ma‘lum tushunchalarni anglatuvchi sinonimlarning mavjud bo‘lishi va sinonimik qatordagi birliklar soni bu tilning boyligini ko‘rsatuvchi sifat belgilari sanaladi. Sinonimik qatordagi so‘zlarning uslubiy tabaqalana borishi esa tilning bu fazilatlarini yana ham to‘ldirishi mumkin. Bir qadar emotsional bo‘lsa-da, bir tushunchani ifoda etuvchi bir necha so‘zdan nazarda tutilgan ma‘no va his-tuyg‘uni ifoda eta oladigan shaklini topib va tanlab ishlatish naqadar huzurbaxsh ish ekanligini ta‘kidlashga to‘g‘ri keladi.

H.Jamolxonov “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kitobining “Leksik sinonimiya qismida¹² ifoda semalarining har xilligidan kelib chiqib, leksik sinonimlarni quyidagi turlarga ajratadi:

1.*Ma‘no sinonimlari* (ideografik sinonimlar). Bunday sinonimlar ma‘no qirralari bilan farqlanadi. Masalan, achchiqlanmoq, g‘azablanmoq, qahrulanmoq leksemalari "G‘azabi kelmoq" ma‘nosi bilan bir sinonimik qatorga birlashadi, ammo ularda shu ma‘noni ifodalash darajasi bir xil emas, u "achchiqlanmoq"dan "g‘azablanmoq"qa, "g‘azablanmoq"dan esa "qahrulanmoq"qa qarab kuchayib boradi.

¹² Жамолхонов Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили, 2-қисм. Лексикология ва Фразеология. Лексикография. – Тошкент, 2004. Ушбу китоб бўйича маълумотлар Интернет – Ziyounet тармоғидан олинди.

2. *Uslubiy sinonimlar* (stilistik sinonimlar). Bunday sinonimlarning leksik ma'nosi ijobiy yoki salbiy bo'yoqlar (uslubiy semalar) bilan qoplangan bo'ladi, ayni shu uslubiy semalar sinonimlarning uslubiy vosita sifatidagi qiymatini belgilaydi. Masalan, *jilmaymoq*, *iljaymoq*, *irjaymoq*, *tirjaymoq*, *ishshaymoq* va *irshaymoq* leksemalarining barchasida bitta leksik ma'no – "ovoz chiqarmay miyig'ida kulish" hodisasini nomlash bor, ammo shu ma'no *jilmaymoq* leksemasida bir oz ijobiy, *iljaymoq* leksemasida esa bir oz salbiy bo'yoq bilan qoplangan, bu salbiy bo'yoq *irjaymoq*, *tirjaymoq*, *ishshaymoq* va *irshaymoq* leksemalarida yanada ortib boradi.

3. *Nutqiy sinonimlar* – nutqning u yoki bu turiga xoslanishi bilan o'zaro farqlanadigan sinonimlar. Masalan, *ozgina*, *picha*, *sal*, *xiyol*, *jinday*, *qittay*, *jichcha* qatoridagi *ozgina* leksemasi nutqning barcha ko'rinishlarida (adabiy nutqda xam, so'zlashuv nutqida ham) qo'llana olgani holda, *picha*, *xiyol*, *jinday*, *qittay*, *jichcha* leksemalari faqat so'zlashuv nutqiga xoslangandir.

O'zaro umumiy ma'nosi bilan birlashib, stilistik ottenkasi – bo'yog'i va nutqda ishlatilish doirasi jihatidan farqlanadigan sinonimlar stilistik sinonimlar deyiladi.

Leksik ma'nosi jihatidan farqalanadigan sinonimlar *ideografik (ma'no) sinonimlardir*. Masalan, *kasal* (umum ishlatadigan so'z), *bemor* (yozuvda ko'p qo'llanadi), *xasta* (eskirgan so'z), ammo *ba'zan*-*ba'zan*, *ora-sira* *kasal* bo'lib turish ma'nosini bildiruvchi *betob*, *notob* so'zlari yuqoridagilarga nisbatan stilistik va ideografik sinonimdir. Ideografik sinonimlar o'zaro leksik ma'no darajasiga ko'ra farqlanadi: yomg'irda plashim nam bo'ldi, yomg'irda plashim ho'l bo'ldi bog'lanishlarining keyingisida belgi darajasi kuchliroq. Nutqda fikr ottenkasiga, leksik, grammatik yoki stilistik xarakteriga mos sinonim so'zlardan faqat bittasi tanlab olinadi va ishlatiladi. Shu sababdan sinonimik qatordagi so'zlar o'rtasidagi ba'zi farqlarni o'rganish stilistikaning vazifasi hisoblanadi.

Muayyan sinonimik qatorni tashkil etuvchi so'zlar konkret hollarda ma'no tomonidan bir-biridan ajraladi, stilistik qo'llanishiga ko'ra farqalanadi.

Bir sinonimik qatorni tashkil etuvchi soʻzlar maʼno jihatidan yaqin boʻlsa ham, baʼzan ulardan birini ikkinchisining oʻrnida ishlatib boʻlmaydi. Masalan: *ayanch ahvol, ogʻir ahvol, qiyin ahvol, mushkul ahvol* birikmalarida *ayanch, ogʻir, qiyin, mushkul* soʻzlari bir-biriga sinonim boʻlib, ayni oʻrinda ularni almashtirish maʼnoga taʼsir qilmaydi. Ammo boshqa bir konkret tushuncha yoki tasavvurni ifodalashda bu sinonim soʻzlarni leksik maʼno nuqtai nazaridan baholash lozim boʻladi. Masalan, *ogʻir* chamadon deyish mumkin boʻlgan holda, *mushkul* chamadon, *qiyin* chamadon deyish kulgilidir.

Sinonimlar nutqda ishlatilish doirasi jihatidan ham oʻzaro farqlanadi. Masalan, barcha nutq stillarida ishlatiladigan umumnutq soʻzi, dudoq - badiiy nutq soʻzi; shamol - umumnutq soʻzi; sabo - badiiy nutq soʻzi; rohat - umumnutq soʻzi; eslamoq - umumnutq soʻzi; xotirlamoq - rasmiy nutq soʻzi; yoʻqlamoq - soʻzlashuv nutqi soʻzi. Bu xil sinonimlar stil (uslub) sinonimlari deyiladi.

Shuningdek, ishlatilish doirasi chegaralangan yo chegaralanmagan boʻlishi mumkin. Masalan, *keksa, qari, oqsoqol, nuroniy, moʻysafid* kabi bir sinonimik qatorni tashkil etuvchi soʻzlar orasida *qari* soʻzining ishlatilish doirasi keng. Bu soʻz insondan tashqari, hayvonlar uchun ham qoʻllaniladi: *qari ot, qari tulki* kabi. Lekin *oqsoqol, nuroniy, moʻysafid* sinonim soʻzlarining ishlatilish doirasi chegaralangan. Bunday holatlar ishlatilish doirasining keng - torligi sinonimlar maʼno hajmiga, yaʼni ularning keng yoki tor maʼno ifodalashiga bogʻliq.

Sinonimlar va ulardan foydalanishga eʼtibor uzoq davrlardan boshlangan. Oʻz davrida buyuk mutafakkir va shoir, tilshunos va adabiyotshunos olim Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lugʻatayn” asarida sinonim soʻzlarning nutqni boyitishdagi rolini chuqur tahlil qilib bergan edi.

Oʻzbek tili nutqda nozik maʼno ottenkalarini hamda rang-barang stilistik boʻyoqlarni bera oladigan sinonimlarga boy. Mashhur oʻzbek shoir va yozuvchilari, soʻz ustalari sinonimlardan mohirlik bilan foydalanib kelganlar. Masalan, Alisher Navoiy oʻzining «Muhokamat ul-lugʻatayn» asarida birgina *yigʻlamoq* soʻziga mazmunan yaqin boʻlgan yettita sinonimni keltiradi:

yig'lamsiramoq, ingramoq, singramoq, siqtamoq, o'kirmoq, qichqirmok, hoy-hoy yig'lamoq. Navoiy bu sinonimlar bir-biridan nozik ma'no ottenkalari va stilistik qo'llanish o'rinlariga ko'ra farqlanishini misollar bilan ko'rsatadi.

Va she'ning bino va madori ishqqa evrulur va oshiqliqda yig'lamoqdin¹³ kulliyroq va doimiyroq amr yo'qtur va anda tanavvu bor: yig'lamsinmoq mazmunidaki, turk mundoq debdurki,

B a y t:

Zohid ishqin desaki, qilg'ay fosh,

Yig'lamsinuru ko'ziga kelmas yosh

Va ingramak va singramakkim, dard bila yashurun ohista yig'lamoqdur va oralarida tafovut oz topilur, turkchada bu matla borkim,

B a y t:

Istasam davr ahlidin ishqingni pinhon aylamak,

Kechalar gah *ingramakdur* odatim, gah *singramak*.

Forsida bu mazmunki bo'lmag'ay, shoir ne chora qilg'ay? Va siqtamoqkim yig'lamoqda mubolag'adur, turk bu nav ado qilibdurki,

B a y t:

Ul oyki, kula-kula qirog'latti meni,

Yig'latti meni demayki, *siqtatti* meni.

Yana biyik un bilaki, e'tidolsiz oshub bila yig'lag'aylar, ani o'kurmak derlar va turkchada ul ma'nida bu matla borkim,

B a y t:

Ishim tog' uzra har yon ashk selobini surmakdur,

Firoq oshubidin har dam bulut yanglig' *o'kurmakdur*.

¹³ Алишер Навоий. Танланган асарлар. XIV том. 1-18 бетлар.

Ammo yig‘lamoqta hoy-hoy lafzin [adoda] o‘zlarin turkiygo‘ylarga sharik qilibdurlar va bu lafz ham aslan turkiy uslubdur va faqirning bu maqtai mashhurdurkim.

Navoiy, ul gul uchun *hoy-hoy yig‘lama* ko‘p,

Ki ha deguncha ne gulbun, ne g‘uncha, ne gul bor!

Ko‘rinadiki, sinonimlar bir xil ma‘nosi bilan birlashuvchi sinonim so‘zlar qatorini tashkil qilsa, fikr va his-tuyg‘ularni aniqroq, ravshanroq ifodalashga imkon beradigan stilistik ma‘nolariga ko‘ra o‘zaro farqlanadi.

Nutqning aniq va ravshan bo‘lishi sinonimlardan to‘g‘ri foydalanishga bog‘liq. Ba‘zi sinonim so‘zlarning ma‘nosini farqlash birmuncha murakkab bo‘ladi. Hatto adabiy nutqni yaxshi biladigan, sinonimlarni to‘g‘ri tanlab, ularni maqsadga muvofiq ishlata oluvchi kishilar ham ko‘pincha sinonimik so‘zlar ottenkalaridagi tafovutlarni tushuntirishda ojizlik qilishlari mumkin. Masalan, bir sinonimik qatordagi *iflos, isqirt, irkit, isliqi, iqna* so‘zlarining ma‘no nozikliklarini osongina izohlab berish qiyin.

Sinonim so‘zlarning ma‘no qirralarini to‘g‘ri anglash va o‘z o‘rnida qo‘llash ularning qanday so‘zlar bilan birikib kela olishi imkoniyatlarini ham hisobga olishni talab etadi. Masalan, *qasamyod, qasam, ont; qasamyod qilmoq, qasam ichmoq, ont ichmoq. Qasam qilmoq, ont qilmoq* deb bo‘lmaganidek, *qasamyod ichmoq* ham deyilmaydi.

Har bir sinonim so‘zning antonimini topish ham sinonim so‘zlarning ma‘no farqini ochishga yordam beradi. Masalan: *yengil - og‘ir, vazmin, zil, zildek, zalvorli; oson, o‘ng‘ay - qiyin, mushkul, mahol, mashaqqatli, dushvor*. Yana: *sekin-tez, ohista- ildam, sust - jadal* kabi.

Sinonim so‘zlar o‘rtasidagi semantik-stilistik ayirmalarni hisobga olmaslik so‘z tanlash va qo‘llash bilan bog‘liq nuqsonlarga olib kelishi mumkin. Masalan, quyidagi jummalarda *yiqilmoq* va *qulamoq, tashna* va *chanqoq, ozg‘in* va *oriq*

soʻzlari oʻrtasida maʼno ottenkalarini, ularning qoʻllanish doiralarini hisobga olmaslik natijasida stilistik xatoga yoʻl qoʻyilgan:

1. Buldozer koʻchamizda yiqilgan va yiqilay deb turgan devorlarni bir chekkaga surib yoʻl ochar edi. *Yiqilmoq* soʻzi, asosan, odam va jonli narsalarga nisbatan qoʻllaniladi. Shuning uchun bu gapda *yiqilmoq* oʻrniga uning sinonimi va asosan, jonsiz narsalarga nisbatan qoʻllanuvchi qulamoq soʻzini ishlatish kerak edi.

2. Choʻponlar ozgʻin qoʻylarning parvarishiga alohida eʼtibor bermayotirlar gapida odamga nisbatan qoʻllanadigan *ozgʻin* soʻzi oʻrniga uning sinonimi *oriq* ishlatilganda matn mazmuniga mos boʻlar edi.

3. Brigada aʼzolaridan R.Avvalov va M.Qobilovlar tunda tashna gʻoʻzalarni suvga qondirib sugʻorishyapti gapidagi *tashna* soʻzi odamga nisbatan qoʻllanadi, odamga va boshqa jonli, jonsiz narsalarning suvtalab holatiga nisbatan *chanqoq* soʻzi ishlatiladi.

Bir fikr bayonida sinonimik qatordagi soʻzlardan bir yoʻla ikkitasini yoki undan ortigʻini ishlatish sinonimlarning stilistik figura sifatida xizmat qilishi bilan bogʻliq.

Sinonimlar stilistik figura sifatida quyidagi maqsadlarda ishlatiladi:

1. Maʼnoni kuchaytirish, umumlashtirish, jamlash maqsadida sinonimik juft soʻzlar ishlatiladi: *baxt-saodat*, *qadr-qimmat*, *hurmat-ehtirom*.¹⁴ Bunday vaqtda ikkinchi sinonim birinchisining aynan takrori boʻlmay, balki u ifodalayotgan tushunchani qoʻshimcha belgisi bilan toʻldirib turadi.

2. Fikrning nutqdagi oʻxshash yoki yaqin tafsilotlarini xilma-xil shakllarda ifodalash uchun ikki yoki undan ortiq sinonimlar ishlatiladi. Bunday vaqtda sinonimlar turli koʻrinishlarda, chunonchi, oʻzak sinonimlar shaklida (*katta*, *ulugʻ*, *buyuk*, *zoʻr*, *azim*, *ulkan*), qoʻshma, yasama soʻzlar shaklidagi (*dov yurak*, *qoʻrqmas*) sinonimlar, birikma sinonimlar (*farq qilmoq*, *tafovut qilmoq*) va

¹⁴ Хожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – 308 бет. Данияров А. Стилистические функции синонимов в современном узбекском языке: Автореф. дис.... канд. филол. наук. – Самарканд, 1966. – 18 с. Исамухамедова С. Синонимы в современном узбекском языке: Автореф. дис.... канд. филол. наук. – Ташкент, 1963.

nihojat, evfemistik soʻz yoki soʻzlar birikmas orqali ifodalanadigan (*ogʻir oyoq, ikkiqat, homilador, yukli*) sinonimlar shaklida boʻladi.

Sinonimlar nutqni taʼsirchan bayon qilishda hamda uslubning rangdor boʻlishini taʼminlashda, qaytariqlarning oldini olishda katta ahamiyatga ega.

Sinonimlarning turli xususiyatlarini oʻrganish boʻyicha oʻzbek tilshunosligida maxsus tadqiqotlar yozilgan. Sinonimlarning turlari va taʼrifi haqida turlicha fikrlar bildirilgan, lekin ularning hammasi mohiyati bilan bir-biridan unchalik farq qilmaydi. Yuqorida ham qayd etilganidek, sinonimlar shakli jihatidan har xil, lekin maʼnosi bir-biriga yaqin soʻzlardir.

Gazeta tilida sinonimlarning qoʻllanishi va uslubiy xususiyatlarini oʻrganishda Sh.Rahmatullaev, A.Hojiev, A.Shomaqsudov, M.Mirtojiyevlarning tadqiqotlariga asoslanish mumkin. Prof. Sh.Rahmatullaev sinonimlarni leksik va grammatik guruhlariga boʻladi.¹⁵ Haqiqatan ham, leksik va grammatik sinonimlar matnda oʻzining uslubiy imkoniyatlarini toʻla namoyon qiladi.¹⁶ Prof. A.Shomaqsudov tasnifiga koʻra sinonimlar maʼno va qoʻllanish doirasi jihatidan ideografik, stil va stilistik sinonimlarga boʻlinadi. Prof. A.Hojievning "Oʻzbek tili sinonimlarining izohli lugʻati" kitobi sinonimlarning maʼnosi, qoʻllanish, doirasini belgilashda asosiy manbalardan hisoblanadi.¹⁷

M.Mirtojiyevning "Oʻzbek tili semasiologiyasi" nomli monografiyasining "Leksik maʼnolardagi paradigmatic munosabat" sarlavhali bobida leksik maʼnolardagi paradigmatic munosabat ikki jihatdan, yaʼni: 1) maʼlum mavzu jihatdan, 2) semantik jihatdan tahlil qilinib, sinonimiya hodisasining mohiyati atroflicha yoritib berilgan.¹⁸

¹⁵ Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1965. – 160 бет.

¹⁶ Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983, 45-46-бетлар.

¹⁷ Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – 308 бет.

¹⁸ Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. - Тошкент: "Mumtoz soʻz", 2010, 189-215-бетлар.

Ma'lumki, sinonimiya birdan ortiq so'zning leksik ma'nolari o'rtasidagi munosabatda yuzaga chiqadi. Birdan ortiq so'zning o'zaro sinonim bo'lishi uchun yana bir necha shartlar bor. Ulardan biri sifatida birdan ortiq so'zning turli talaffuzga, ya'ni turli fonetik tarkibga ega bo'lishi deb ko'rsatiladi. Haqiqatan ham sinonim bo'lgan so'zlar tovush tarkibi jihatidan bir xil bo'lmasligi shart.

Sinonimiya til hodisasi bo'lgandan keyin, uni sub'ektiv nuqtai nazardan turib o'lchanmaydi. Sinonimiyani belgilash hech vaqt yozuv nuqtai nazariga tobe bo'lib qolmaydi. So'zlashuv nutqida ularning qanday yozilishi qimmatga ega emas. Sinonimiya usiz ham o'z qimmatida turaveradi.

Birdan ortiq so'zning o'zaro sinonim bo'lishi uchun asosiy shart sifatida ulardagi ma'noning bir xilligi, aynan bir xilligi, o'zaro yaqinligi yoki o'xshashligi kabilar aytiladi. Ya'ni sinonimiyada so'zlarning ma'no munosabati uni belgilovchi asosiy shart hisoblanadi. M.Mirtojiyev belgilovchi asosiy shart so'zlarning ma'no munosabati ekanligi ko'rsatib, ularni ikkita tipga bo'ladi: 1) so'zlarning ma'no munosabati aynan bir xillikka asoslangan sinonimlar, ya'ni absolyut sinonimlar; 2) so'zlarning ma'no munosabati umuman bir xillikka asoslangan sinonimlar, ya'ni semantik sinonimlar. So'zlarning o'zaro ma'no yaqinligi va o'xshashligi kabi masalalar semantik sinonimlar ichida aniqlanadi.

So'zlarning, ya'ni birdan ortiq so'zning ma'no munosabati aynan bir xillikka asoslangan sinonimlar tilshunoslikda *absolyut* sinonimlar deb ataladi. Ularni ayrim tilshunoslar *dublet* deb ataydilar. Ba'zi ishlarda esa ma'nolari ayni bir xil sinonimlar mavjudligini aytish bilan cheklanilgan: uni absolyut sinonim deb ham, dublet deb ham atalmagan. Aslini olganda, absolyut sinonim va dublet terminlari bir xil ma'noga ega. Bu terminlar ostida ifodalangan sinonimlar birdan ortiq so'zning semantik tarkibi ayni bir xil bo'lishini bildiradidi.

A.Hojiyev: "*Agar hech qanday farqli belgi bo'lmasa, bunday sinonimlik (absolyut sinonim) o'tkinchi holat...*", - deydi. Uningcha, absolyut sinonim tarkibidagi bir so'z yo arxaiklashadi, yo sherigiga nisbatan semantikasini bir jihati bilan farqlaydi. Masalan, o'zbek tilida *tilshunos* va *lingvist* so'zlari absolyut

sinonim deb ko'rsatib kelinadi. Lekin hozir tilshunos so'zi umumso'zlashuv tilida qo'llansa, lingvist so'zi deyarli kitobiy leksikaga xoslanib bo'ldi. Absolyut sinonimlar deyarli tillarda sanoqli miqdorda uchraydi. Absolyut sinonimlar manbai asosan o'zbek tilida barcha tillardagi kabi terminlarda uchraydi. Masalan, kitobatchilik leksikasida tipografiya / bosmaxona, qoramolchilik leksikasida cho'pon / podachi, oshlovchi / tuzlovchi kabi absolyut sinonimlar juftligi mavjud. Lekin ular har bir terminologik tarmoqda juda kam. Ayrim terminologik tarmoqlarda uchramasligi ham mumkin. Masalan, fizika fani sohasidagi terminologiyada absolyut sinonimlar deyarli yo'q.

Absolyut sinonimlarning tarkib topishi ancha bo'g'ilganligi uchun ham ular deyarli ikki so'zdan iborat bo'ladi. Terminlarga mansub absolyut sinonimlarning tarkib topishida dialektal terminlarning adabiy tilga kirib kelishi ahamiyat kasb etadi. Bunda dialektal termin, ya'ni professionalizm adabiy tildagi termin bilan ayni bir ma'noga ega holatga keladi, absolyut sinonim tarkib topadi. O'zbek adabiy tilining uy-ro'zg'or leksikasida *narvon* termini bor edi. Uning yoniga *shoti* professionalizmi o'zlashtirildi. Natijada *narvon* va *shoti* terminlari hisobiga absolyut sinonim tarkib topdi. O'giz dialektida ham shu ma'noga ega zangi professionalizmi bor. Lekin u adabiy tildagi *narvon* termini bilan absolyut sinonim bo'la olmaydi. Chunki u adabiy tilning mulki emas. O'zbek tiliga muallim so'zining o'zlashtirilishi uning shu tilda bor o'qituvchi so'zi bilan absolyut sinonim tarkib topishi uchun sabab bo'lgan.

A.Abdusaidov gazeta matnlarida uchraydigan ruscha–baynalmilal so'zlar va ularning dubletlarini to'plab, “Leksik dubletlar va ularning izohi(gazeta materiallari asosida)”nomli o'quv qo'llanmasini yaratgan edi.¹⁹ Qo'llanmada gazeta tilida leksik dubletlarni qo'llashdagi 1989 yildan keyingi 4-5 yil ichidagi jarayon tahlil etilgan. Unda *respublika – jumhuriyat, tarix – moziy, ministr – vazir, jurnal – majalla, universitet – dorilfunun, diagnoz – tashxis* kabilarning ma'no

¹⁹ Абдусaidов А. Лексик дублетлар ва уларнинг изоҳи (газета материаллари асосида). – Самарқанд: 1993. - 112 бет.

xususiyatlarini o'rganish maqsadida gazetalardan misollar to'plab, ularni izohlaydi. Hozirgi davr gazetolari misolida leksik dubletlar, ayrim adabiyotlarda qayd etilganidek, absolyut sinonimlarni atroflicha o'rganish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

M.Mirtojiyevning yozishicha, lingvistik adabiyotlarda semantik sinonimlarni absolyut sinonimlardan farqlash uchun "aynan bir xil ma'noli" so'zlar deb emas, "o'zaro yaqin ma'noli" so'zlar deb ataydilar. Chunki semantik sinonimlarda so'zlar ayrim leksik ma'nosi bilan to'laligicha bir xil bo'lmaydi. Shu leksik ma'nolar emotsional-ekspressiv, uslubiy semalari, ularning qaysi uslubga xosligi kabilar bilan o'zaro, shubhasiz, farqlanadi. A.Hojiev juda to'g'ri ta'kidlaganidek, yaqinlik yaqinlashtiradi, lekin birlashtirmaydi. Buning uchun u *kulmoq*, *iljaymoq*, *jilmaymoq*, *tirjaymoq*, *irjaymoq*, *irshaymoq*, *ishshaymoq*, *xaxolamoq*, *xihilamoq*, *hehelamoq*, *qaxqaxlamoq*, *piqirlamoq*, *qiqirlamoq* so'zlarini tahlil qiladi. Uning ko'rsatishicha, bu so'zlar leksik ma'nolari bir-biriga juda yaqin. Ular o'zaro semantik qatorni tarkib toptiradi. Lekin bir sinonimik qator bo'la olmaydi. Bulardan *iljaymoq*, *jilmaymoq*, *tirjaymoq*, *irjaymoq*, *irshaymoq*, *ishshaymoq* fe'llari "lab va ko'z muskulida shodlik alomati paydo qilmoq" leksik ma'nosi; *kulmoq*, *xaxolamoq*, *xihilamoq*, *hehelamoq*, *qaxqaxlamoq* fe'llari "shodligini bildiruvchi ovoz bermoq" leksik ma'nosi bilan o'zaro bir xil, sinonimik qatorni tarkib toptirgan. Ya'ni o'zaro leksik ma'no yaqinligi emas, bir xilligi so'zlar sinonimiyasi uchun asos bo'ladi.²⁰ Semantik sinonimlar birdan ortiq so'zning ma'lum leksik ma'nosi bir xil bo'lishiga asoslanadi. Lekin bu leksik ma'nolar absolyut teng kelmaydi. Leksik ma'no tarkibida shunday semalar bo'ladiki, bu bilan u o'ziga xosdir va boshqalaridan semantikasini farqlab turadi. Ularning shu semalari so'zlarning leksik ma'nolari bir xilligiga ko'ra sinonimni tarkib toptirganda xoli qoladi, bir xil kelgan leksik ma'nolar tarkibidan chetda bo'ladi. "Sinonimlar - bu nominativ ma'nosi bilan teng kelgan so'zlar", – degan

²⁰ Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. - Тошкент: "Mumtoz so'z", 2010, 196-197-бетлар.

ta'rif mavjud. Buning uchun quyidagi misolga diqqatni qaratishga to'g'ri keladi. *Chiroyli, go'zal, ko'hli* so'zlari nominativ ma'nosi bo'yicha o'zaro semantik sinonimdir. Bu jihatdan ular teng semantikaga ega. Ammo ular absolyut sinonim emas. *Go'zal* so'zi poetik nutqqa, *ko'hli* so'zi so'zlashuv nutqiga xosligi bilan qolganlaridan farq qiladi. Shuningdek, so'zlarning nominativ ma'nosi emotsional, ekspressiv, uslubiy ifoda beruvchi semalardan holi bo'ladi.

O'zbek tilida semantik sinonimlarning manbalari bir necha. Ular asosan quyidagilar: Chet tilidan o'zlashtirilgan so'zlar o'z leksikadagi mavjud so'zlar bilan semantik sinonimlarni tarkib toptiradi. Masalan, o'zbek tilida *ota* so'zi bor. Eroniy tillardan yana *padar* so'zi o'zlashtirilib, u bilan semantik sinonimni yuzaga keltirgan. Shunga o'xshash yana eroniy tillardan *poy* so'zining o'zlashtirilishi o'zbekchadagi *oyoq* so'zi, *kor* so'zining o'zlashtirilishi o'zbekchadagi *ish* so'zi; arab tilidan *nashr* so'zining o'zlashtirilishi o'zbekchadagi *chop* so'zi, mehnat so'zining o'zlashtirilishi o'zbekchadagi *ish* so'zining semantik sinonimi tarkib topishi uchun asos bo'lgan. Ayrim hollarda chet tilidagi mavjud sinonimlarni o'zbek tiliga o'zlashtirish ham kuzatiladi. Masalan, arab tilidagi mavjud *ishq* va *muhabbat*, yana *baxt* va *saodat* semantik sinonimlari o'zbek tiliga to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirilgan. Ayrim hollarda ikki chet tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan so'zlar o'zaro semantik sinonimni tarkib toptirishi mumkin. Masalan, o'zbek tiliga arabcha *asir*, eroniy tillardan *bandi* so'zi o'zlashib, yana rus tili orqali *nerv* va arab tilidan *asab* so'zi o'zlashib, o'zaro semantik sinonimlar paydo bo'lgan.

O'zbek adabiy tiliga dialektal so'zlarning o'zlashtirilishi ham semantik sinonimlar uchun manbadir. Masalan, o'zbek adabiy tiliga Toshkent shevasidan *narvon* va Farg'ona-Marg'ilon shevasidan *shoti* so'zlari, Toshkent shevasidan *unashmoq* va Farg'ona-Marg'ilon shevasidan *bo'lishmoq* so'zlari qabul qilingan. Natijada, o'zbek adabiy tilida *shoti* / *narvon*, *unashmoq* / *bo'lishmoq* semantik sinonimlari tarkib topgan.

O'zbek tilida so'z yasash ham semantik sinonimlar uchun manbadir. Bunda ko'proq bir so'z yasalishi asosidan sinonimik affikslar vositasida semantik

sinonimlar yasaladi. Masalan, *yelka* otiga ham *-li*, ham *-dor* affiksini qo‘shib, *yelkali* va *yelkador* semantik sinonimlar yasalgan. Yana *suv* otiga ham *ser-* prefiksi, ham *-li* affiksini qo‘shib, *sersuv* va *suvli* semantik sinonimi yasalgan. Bu hodisaga ko‘ra o‘zbek tilida semantik sinonimlarning yasalishi juda keng tarqalgan. Yo.Tojiev o‘zining nomzodlik dissertatsiyasida faqat otlardan *-li/-dor*, *-li/ser-*, *-li/ba-*, *-li/ -chan*, *ser/ba-*, *-dor/ ser-*, *-li/ -kor*, *-mand*, *-don*, *-nok*, *-chan*, *-toy*, *-siz/be-*, *-siz/no-*, *-siz/nim-*, *be/no-* affiksial juftliklari vositasida semantik sinonimlar yasalishini tadqiq etgan. U yana doktorlik dissertatsiyasida o‘zbek tilidagi barcha affiksial sinonimlarni tadqiq qilgan.²¹

Yasama semantik sinonim bo‘lishi uchun faqat bir so‘zdan affiksial sinonim vositasida so‘z yasash shart emas. Turli so‘zlardan bir affiks vositasida yasalgan yasamalar ham semantik sinonimlarni tarkib toptiradi. Masalan, *ko‘rk*, *chiroy*, *husn* so‘zlariga *-li* sifat yasovchisi qo‘shilib, “yuz ko‘rinishi yoqimli” leksik ma’nosiga ega semantik sinonim qatorini yuzaga keltirgan: *ko‘rkli*, *ko‘hli*, *chiroyli*, *husnli*. Bu yasamalar uchun o‘zak bo‘lgan *ko‘rk*, *chiroy*, *husn* otlari esa o‘zaro deyarli semantik sinonim bo‘la olmaydi. Chunki ularning leksik ma’nosidagi semantika o‘zaro bir xil kelmaydi. Lekin bu ularning yasamasi semantik sinoniim bo‘lishi uchun monelik ham qilmagan. Ayrim semantik sinonimlar yasama so‘zlarning tub so‘zlar bilan leksik ma’nosi bir xil kelib qolishi orqali ham tarkib topadi. Masalan, *go‘zal* tub so‘zining leksik ma’nosi yuqoridagi *ko‘hli*, *chiroyli*, *husnli* yasama so‘zlari leksik ma’nosi bilan, yadro semalari e’tiboriga ko‘ra, bir xil, ya’ni ular o‘zaro semantik sinonimdir.

So‘zlarning polisemantikligi ham semantik sinonimlar tarkib topishida o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Polisemantik so‘zlarning birorta leksik ma’nosi boshqa biror so‘z leksik ma’nosini figural ifodalash sababli hosil etilgan bo‘lishi

²¹ Таджиев Ё. Синонимия словообразующие аффиксов с значением "еаличие-отсутствие" в современном узбекском язнке. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. –Ташкент, 1974. Таджиев Ё. Аффиксальная синонимия в узбекском язнке. Автореф. дисс. ...докт. филол. наук. –Тошкент, 1991.

mumkin. Shunday polisemantik soʻz muayyan soʻz bilan polisemantik soʻzni tarkib toptirar ekan, deyarli biror leksik maʼnosiga tayanadi. Masalan, *yuz* soʻzi polisemantik boʻlgani holda, “boshning burundan ikki tomonidagi yumshoq qismi” leksik maʼnosi bilangina *bet*, *chehra*, *ruhsor*, *uzor*, *bashara*, *turq* va hokazo soʻzlardan iborat sinonimik qatorga kirgan. Yaʼni polisemantik soʻz bir leksik maʼnosi asosida bir sinonimik katorga mansub boʻladi. U qolgan leksik maʼnolari asosida boshqa sinonimik qatorga kirishi ham mumkin. Ayrim hollarda ayrim polisemantik soʻzlar har bir leksik maʼnosi bilan bir sinonimik qatorda kuzatiladi. M.Mirtojiyev *bet* polisemantik soʻzining 8 ta leksik maʼnosini qayd etadi: 1. Odam boshining oldingi qismi. 2. Boshning burundan ikki tomonidagi yumshoq qismi. 3. Sirtqi yuza qism. 4. Varaqning bir yuzasi. 5. Yoʻlning oʻng yoki chap tomoni. 6. Suvning quruqlikka tutash joyi. 7.Tigʻning kesuvchi yuzasi. 8. Muloqotdan tortinish hissi.

Bugungi matbuot jamoatchilik fikrini aks ettirishni, yaʼni jamiyatda mavjud turli fikr-mulohazalarning erkin ifodachisiga aylanishni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻygan. Shu nuqtai nazardan gazeta tilida qoʻllanilgan va qoʻllanilayotgan soʻz va iboralarining omma ongiga qay darajada taʼsir etish ular olayotgan maʼlumotlar tez va tushunarli boʻlishi uchun ham turli leksik birliklardan foydalanilmoqda. Bu leksik birliklar ichida sinonimlarning ham ahamiyati katta.

Sinonim soʻzlarning har biri oʻz semantik –sitolistik maʼnosiga ega boʻlib, ularning maʼnolardagi nozik farqlar matinda aniq boʻladi. Sinonimlarning matinda yoki gazeta tilida mos yoki mos emasligiga, semantik-stilistik maʼnosiga eʼtibor berish juda muhimdir. Ularning oʻz oʻrnida maʼno nozikligiga qarab qoʻllash nutqni ravon, yorqin, aniq mazmunli qilib ifodalashga yordam beradi. Sinonim soʻzni oʻz oʻrnida ishlatmaslik maʼno hususiyatlarini hisobga olmaslik maʼlum uslubiy kamchilikka, baʼzan gʻalizlikka, umuman uslubiy meʼyorning buzulishiga sabab boʻladi.

Gazeta tilida leksik-frazeologik sinonimlarning qoʻllanishi juda rang-barangdir. Ularning qoʻllashda jurnalistlarning mohirligi, topqirligi sezilib turadi.

1.2 Sinonimlarning semantik munosabati

Semantik sinonimlar ikki va undan ortiq, hatto o'n atrofidagi ma'nodosh so'zlardan tarkib topishi sinonimik qatorlarni yuzaga keltiradi. Til boyligida semantik qatorlar ham mavjud. Bu semantik qatorlardan sinonimik qatorlar, so'zlarning o'zaro semantik munosabatiga ko'ra, farq qiladi.

1. **Ideografik sinonimlar** shunday semantik sinonimki, ular tarkibidagi so'zlarning leksik ma'nosi bir-biridan ifoda hajmiga ko'ra farq qiladi. Arab tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan ishq va muhabbat sinonimiga diqqatni qaratishga to'g'ri keladi. Bu so'zlar "biror shaxsga dildan berilgan ishtiyoq" leksik ma'nosi bo'yicha ma'nodoshdir. Lekin bu ikki so'z leksik ma'nolari ifodasi hajmiga ko'ra o'zaro farq qiladi. *Ishq* so'zining leksik ma'nosidagi kechinma faqat yor va olloh uchun, muhabbat so'zining leksik ma'nosidagi kechinma yor, olloh, ota-ona, farzand va yaqinlarga nisbatan hamdir. Bu *ishq* va *muhabbat* so'zlari ideografik sinonim ekanligini ko'rsatadi.

2. **Emotsional-ekspressiv sinonimlar** ma'lum leksik ma'nosi yadro semalari bo'yicha aynan bir xil bo'lib, pragmatik semasi, ya'ni emotsional yoki ekspressiv semasi o'zaro farqlanadigan bo'ladi. Masalan, *jilmaymoq*, *iljaymoq*, *ishshaymoq*, *irshaymoq*, *tirjaymoq* semantik sinonimlar qatorini keltirish mumkin. Bu sinonimik qator "lab va ko'z muskulida xursandlik alomati hosil qilmoq" leksik ma'nosining yadro semalariga ko'ra o'zaro bir xil. Ammo ulardan *jilmaymoq* so'zigina shu leksik ma'noni ifodalash bilan cheklangan, u shu semantik sinonim uchun dominantadir. Bu izoh shu qatordagi barcha so'zlarga xos bo'lib, qolganlari ijobiylik yoki salbiylik pragmatikasi bilan undan farqlanadi. *Iljaymoq* fe'li leksik ma'nosida ijobiy emotsionallik, *ishshaymoq* fe'li leksik ma'nosida salbiy emotsionallik bor. *Irshaymoq* fe'li leksik ma'nosida "kinoyaviylik" va *tirjaymoq*

fe'li leksik ma'nosida "zaharxandalik" emotsional tuyg'u semasi o'z ifodasini topgan. Ya'ni bu qator sinonimlari leksik ma'nosi emotik semasiga ko'ra o'zaro farqlanadi.

Sinonimik qatordagi so'zlarning leksik ma'nosi ekspressiv semaga ko'ra ham o'zaro farqlanadi. Masalan, *bo'ychan*, *baland novcha*, *daro*, *dov* sinonimik qatoriga e'tibor beraylik. Undagi *baland* so'zi leksik ma'nosi "me'yordan ortiqlik"ni o'z ko'lamida ifodalagan bo'lsa, *bo'ychan* so'zidagi pragmatik semada "nisbatan kamroq" *novcha* so'zidagi pragmatik semada "ko'zga tashlanar darajada ortiq", *daro* so'zidagi pragmatik semada "juda ortiq", *dov* so'zidagi pragmatik semada "beo'xshov ortiq" holatda ifodalangan. Keyingi sinonimlar belgi darajasini o'zidan avvalgiga nisbatan orttirib borgan. Belgilar ifodasida ekspressivlik bo'lgan.

3.Uslubiy sinonimlar ma'lum leksik ma'nosi yadro semalari bo'yicha aynan bir xil bo'lib, u bilan voqelangan so'zlar muayyan bir ijtimoiy qatlamga mansubligiga ko'ra o'zaro farqlanadi.²² Semantik sinonimlarning bu ko'rinishi qaysi nutqqa xosligi bilan o'zaro semantik tafovutga egaligiga ko'ra ayrim adabiyotlarda nutqiy sinonimlar deb atalgan.²³ O'sha adabiyotda *chiroyli*, *go'zal*, *ko'hli* sinonimik qatori berilib, tahlil etilgan. Ularning birinchisi umumleksikaga, ikkinchisi poetik nutqqa, uchinchisi so'zlashuv nutqiga oid, deb ko'rsatiladi. Bu sinonimik qatordagi so'zlar semantik tafovuti ham uslubiy sinonimlarga berilgan mezon uchun mosdir.

4.Uzvi ta'kidli sinonimlar ma'lum leksik ma'nosi yadro semalari bo'yicha aynan bir xil bo'lib, shu yadro semalardan qaysi biridir ta'kid olishiga ko'ra o'ziga xos bo'ladi. Aniqrog'i, sinonimik qatordagi so'zlar leksik ma'nosi yadro semasi ayni bir xil ekanligi bilan xarakterlanadi, lekin shu yadro sema tarkibidagi semalarga qaratilgan ta'kid turlicha bo'ladi. Masalan, *boqmoq*, *qaramoq*, *ko'rmoq*

²² Орифжонова Ш.А. Ўзбек тилида луғовий градуонимия. Филол. фан. номз. .дисс. автореф. – Тошкент: 1996, 6-бет.

²³ Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ўша асар. - 31-бет.

sinonimik qatoridagi soʻzlar leksik maʼnosi, yaʼni sememasi “nigohni obʼektga toʻgʻrilamoq”, “tushirmoq”, “sezmoq” semalaridan iborat. Soʻz leksik maʼnolari kommunikatsiyada undan tashqari konnotativ maʼnolarni ham voqelantiradi. Lekin leksema sememasining bv yadro semasi shu semalardan tashkil topgan boʻladi. Boqmoq feʼli leksik manosi 1-sema, qaramoq feʼlida 2-sema, koʻrmoq feʼlida 3-sema oʻz taʼkidiga ega, soʻz leksik maʼnosining yadro semalari tarkibida diqqat markaziga chiqariladi. Yaʼni boqmoq feʼlida nigohning obʼektga toʻgʻrilanganligi asosiy eʼtiborda boʻlib, *qaramoq* feʼlida nigohning obʼektga tushirilganligi, koʻrmoq feʼlida nigohning obʼektini his etganligi ahamiyatli hisoblanadi. Boqmoq feʼli tilda nafaolligi, koʻrmoq feʼli oʻtimliligi bilan boshqalaridan farqlanadi. Shunga binqaramay, semantik nuqtai nazardan, yuqoridagi farq ular koʻrinishini belgilaydi. Chunki sinonimiya soʻzlarning leksik maʼnosi eʼtibori bilan belgilanadi.

5.Nofaol sinonimlar maʼlum leksik maʼnosi yadro semalari boʻyicha aynan bir xil boʻladi, lekin sinonimik tarkibdagi bir soʻz maʼlum sababga koʻra nofaol holatga koʻchadi. Buning sababi yo soʻzning eskirganligi, yo dialektalligi bilan bogʻliligida kuzatiladi. Masalan, *piyoz* soʻzining *soʻgon*, *nerv* soʻzining *asab* semantik sinonimlari bor. Biroq ular arxaiklashib qolgani uchun nofaol holda, ayrim maqollar, topishmoqlar, parafrazalar tarkibidagina qoʻllanadi. A.Hojievning qayd etishicha, *ovoz*, *tovush*, *un*, *sado*, *sas*, *nido* semantik sinonimlaridan *sas* soʻzi; *izlamoq*, *qidirmoq*, *axtarmoq*, *istamoq* sinonimik qatoridan *istamoq* soʻzi dialektal, nofaol holda uchraydi.²⁴

M.Mirtojiyev taʼkidlaganidek, semantik sinonimlar besh koʻrinish: ideografik, emotsional-ekspressiv, uslubiy, uzvi taʼkidli va nofaol sinonimlarga boʻlinadi. Ideografik sinonimlarning leksik maʼnosi biri ikkinchisidan ifodasi kengligi, emotsional-ekspressiv sinonimlarning emotiv yo ekspressiv semalari turliligi, uslubiy sinonimlarning turli nutqqa xosligi, uzvi taʼkidli sinonimlarning

²⁴ Хожиев А. Семасиология.// Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – 198 бет.

turli semasiga ta'kid tushishi, nafaol sinonimlarning biri arxaik yo dialektalligi bilan ular o'zaro farqlanadi.²⁵

So'zlarning o'zaro sinonim bo'lishida ular leksik ma'nosi o'rtasidagi semantik munosabat mezon vazifasini o'taydi. Leksik ma'nosi bo'lmagan so'zlar ham sinonim bo'lishi mumkin. Masalan, *biroq*, *ammo*, *lekin* so'zlari, yana ham aniqrog'i, bog'lovchilar o'zaro sinonimdir. Ular o'zaro sintaktik vazifasi, gaplarni o'zaro semantik bog'lashiga ko'ra aynan bir xil. Shunga ko'ra ular o'zaro *absolyut* sinonimdir. Chunki absolyut sinonim o'zaro semantik va grammatik jihatdan aynan bir xil bo'lgan birdan ortiq so'zlar hisoblanadi.

Sh.Rahmatullaev ideografik sinonimlar uchun *kerak*, *lozim* so'zlarini keltiradi.²⁶ Bu so'zlar haqiqatda ham modallik semantikasiga ko'ra bir xil. Lekin ekspressivlikka ko'ra *kerak* so'ziga nisbatan *lozim* so'zi kuchli, ya'ni darajalanish bor. Bular yoniga yana *shart*, *zarur* so'zlarini ham qo'yish mumkin. Ular semantikasi ham *kerak*, *lozim* so'zlari semantikasi bilan bir xil. Ekspressivligi esa *lozim* so'zidagiga nisbatan *shart* so'zida, *shart* so'zidagiga nisbatan *zarur* so'zida kuchliroq. Shunga ko'ra bu so'zlar qatorini semantik sinonim deb bimalol aytsa bo'ladi. Lekin ular ideografik sinonim emas, emotsional-ekspressiv sinonim deb qaraladi. Chunki sinonimik qatorning belgini darajalab ko'rsatishi faqat emotsional-ekspressiv sinonimlarga xos.

Demak, semantik sinonimning tashkil topishi uchun so'zlar leksik ma'nosi bo'lsa ham, konnotativ ma'no bo'lsa ham, xullas, har qanday semantikasiga ko'ra bir xil kelishi qat'iy mezonidir.

M.Mirtojiyev sinonimlarning xususiyatlarini tahlil qilib, quyidagi xulosani bildiradi: Sinonimlar ikki tip: 1) **absolyut sinonimlar**, 2) **semantik sinonimlarga** ajraladi. Semantik jihatdan aynan bir xil so'zlar absolyut sinonimlar bo'lib, yadro semalariga ko'ra leksik ma'nolari bir xil bo'lgan so'zlar semantik

²⁵ Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. - Тошкент: "Mumtoz so'z", 2010, 213-бет.

²⁶ Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 2-нашри. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975, 30- бет.

sinonimlardir. Sinonimlar ayni bir til vakilida ayni bir davrda qoʻllanadigan bir turkum doirasidagi soʻzlardan tashkil topadi. Ular chet tilidan, shevalardan adabiy tilga soʻz oʻzlashtirish hisobiga boyiydi. Absolyut sinonimlar asosan terminlardan iboratligi holda, tilda uzoq yashamaydi. Semantik sinonimlar yana soʻz yasash, polisemantiklik, maʼno taraqqiyoti hisobiga ham yuzaga keladi. Sinonim tarkibidagi soʻz leksik maʼnolari jins va tur ifodasiga ega boʻlishi va ijtimoiy-siyosiy jihatdan nomos kelishi mumkin emas. Semantik sinonimlar leksik maʼnolaridagi farqli semalariga koʻra ideografik sinonim, emotsional-ekspressiv sinonim, uslubiy sinonim, uzvi taʼkidli sinonim, nafaol sinonimlarga boʻlinadi. Sinonimik qator tarkibidagi leksik maʼnosi yadro semalaridangina iborat soʻz dominanta boʻlib, u bilan yadro semalari bir xil, lekin qolgan semalari farq qiladigan leksik maʼnoli soʻzlar guruhi sinonimik qator deyiladi.²⁷

O.Oxunjonova sinonimik qatorga kiruvchi soʻzlarning **keng** yoki **tor** tushunchani ifodalovchi farqlarga ona tili taʼlimi tizimida qay darajada eʼtibor berilganligiga keyingi yillarda yaratilgan darsliklarni tahlil qilish asosida baho beradi. Aniqlanishicha, affikslardagi sinonimiya hodisasi, sintaktik sinonimiya boʻyicha qilingan ishlar, jiddiy asoslangan fikrlar boʻlishiga qaramay, taʼlim tizimiga tatbiq etilmagan. Toʻgʻrirogʻi, taʼlim tizimida sinonimlarni oʻqitish nazariy-amaliy asoslarga tayanilmagan holda olib borilgan. Ona tili taʼlimida "Sinonimlar" mavzusining mundarijasini "Lugʻaviy sinonimlar" (toʻla holatida), "Affikslar sinonimiyasi", "Sintaktik sinonimlar", "Nutqiy sinonimlar" qismlaridan iborat qilib belgilash lozimligi koʻrsatilgan. Olimaning taʼkidlashicha, uzluksiz taʼlimning quyi bosqichida (5-,9-sinflar) "Sinonimiya" mavzusini oʻqitish asosan 5-sinfda belgilangan boʻlib, baʼzi IX sinflar uchun moʻljallangan "Ona tili" darsliklarining "Nutq madaniyati va uslubiyati" boʻlimlarida bu hodisaga qisman toʻxtalib oʻtish rejalashtirilgan.

²⁷ Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. - Тошкент: "Мумтоз соʻз", 2010, 214-215-бетлар.

9-sinflar uchun tuzilgan boshqa darsliklarda sinonimiya hodisasi bilan bog'liq mavzular berilmagan. M.Asqarova, K.Qosimovalar tomonidan tuzilgan 5-sinf uchun ona tili darsligida (2005) bu mavzuga bir o'rinda leksikologiya bo'limida maxsus dastur (xususiy) mundarijasi ajratilgan. H.Ne'matov va boshqalar tomonidan tuzilgan 5-sinf "Ona tili" darsligida bu mavzuga ikki o'rinda to'xtalib o'tilgan (50-51-betlar; 100-104-betlar). Birinchi qismda bu mavzu asosan quyidagi mundarijada berilgan: berilgan so'zlar tagiga ma'nodoshlarini yozdirish; bilib oling ruknida ta'rif; ma'nodosh so'zlarning 3 jihatga ko'ra farqlanishi: ma'no qirras; uslubiy bahosi; nutqiy xoslanishi... kabilar. Ikkinchi qismda asosan oldingi qismda olingan bilimlarni mustahkamlash belgilangan.

Akademik litseylar uchun "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kursi bo'yicha tuzilgan dasturda bu mavzuga kursning "Leksikologiya" bo'limida "Matndagi sinonim so'zlarga diqqat qaratish", "Sifatlar ma'nodoshligi", "Yasovchi qo'shimchalar ma'nodoshligi" dasturi asosida o'rin berilgan bo'lib, dasturning "O'tilganlarni takrorlash" qismida so'z birikmalari ma'nodoshligi" mavzusi o'rin olgan. Akademik litseylarda sinonimiya hodisasi shu dastur mundarijasi asosida o'tilayotganligi kuzatiladi.

O'zbekistondagi kasb-hunar kollejlari uchun tuzilgan "Ona tili va adabiyot" dasturida "Sinonimiya" hodisasi shakldoshlik, zid ma'nolilik va bularning so'z qo'llash imkoniyatlariga munosabati, bu hodisalarning notiqlik va badiiy san'at usullariga asos bo'lishini o'rganish rejlasmishtirilgan.²⁸ Ko'rib o'tilganlardan ma'lum bo'ladiki, umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida, "Sinonimiya" mavzusi bo'yicha maxsus dasturlar mundarijasi nihoyatda sayoz. Ularga juda oz vaqt ajratilgan. Mazkur holat o'quvchilarning nutq boyliklarini oshirish, namunali nutq tuzish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish uchun to'la imkoniyat bera olmaydi.

²⁸ Asqarova M., Abdulloev I., Omilxanova M. Ona tili, 8,9-sinflar uchun darslik. - Toshkent: Y'kituvchi, 1997, 221-222- betlar.

O.Oxunjonova "O'zbek tilidagi sinonimlar tasnifi"ni quyidagicha tavsiya etadi: a) sinonimlarning qaysi til birliklariga oidligiga ko'ra tasnifi; b) sinonimlarning til va nutqqa munosabatiga ko'ra tasnifi. Sinonimlar qaysi til birliklariga oidligiga ko'ra: a) lug'aviy; b) affiksali; v) grammatik sinonimlarga ajratilishi mumkin. Shulardan lug'aviy sinonimlarning o'zi so'z-sinonimlar; frazeologik sinonimlar; so'z va frazeologik sinonimlar tarzida guruhlanishi mumkin. Shu tarzda affikslar sinonimiyasi ham, grammatik sinonimlar ham ichki guruhlarga ajratib o'rgatiladi.²⁹

Olimaning ushbu fikrlarini to'la ma'qullagan holda, sinonimlar mavzusini o'rganishda gazeta matnlaridan foydalanish nihoyatda foydali ekanligini qayd etmoqchimiz. Chunki gazeta matnlari kundalik hayotimizni yoritish bilan o'quvchilarga davr bilan hamohanglikni berish va ijodkorlikni tarbiyalashda muhim manbalardan biri sifatida xizmat qila oladi.

Sinonimlarning turli xususiyatlari bo'yicha yuqoridagi fikrlarga asoslanib, gazeta matnlarida ulardan foydalanish, sinonimlarning ma'no nozikliklari, imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, jurnalistlarning mahoratini o'rganish gazeta tili muammolari orasida muhim masalalardan hisoblanadi.

Mamlakat hayotida demokiratik tamoyillar chuqurlashgani sari ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ham tezlashib boradi. Bu jarayonni jamiyatning muhim demokratik institutlardan biri bo'lmish ommoviy axborat vositalari faoliyatida ham ko'rish mumkin.

Matbuotning samaradorligi va ta'sirchanligiga erishish ommoviy axborat vositasi va ta'sisi oldida turgan birlamchi vazifa hisoblanadi. Ta'sirchanlikka erishish gazeta yoki jurnalning gazetxon va jamiyat oldida obro'-e'tiborini oshiradi, jamoatchilik bilan aloqasini mustahkamlaydi, bunday nashir o'quvchilar lshonchiga sazovar bo'ladi.

²⁹ Охунжонова О. Таълим босқичларида синонимлар мавзусини ўқитиш методикаси. Педагогика фанлари номзоди дис. автореферати. – Тошкент: 2009, 8-бет.

Axborat olamining globallashuvi ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy, iqtisodiy hayotga, ayni chog'da odamlarning turmush tarzi va dunyoqarashiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Gazeta tili ham unda qo'llanilayotga har bir so'zlar o'z mazmuniga binoan qo'llanilsa gazeta janrlarining mohiyati ham yuzaga chiqadi. Shu qatori sinonimlarning ham gazeta tili va uning janrlarida katta ahamiyatiga ega ekanligi yaqqol namayon bo'ladi

II BOB GAZETA TILIDA LEKSIK SINONIMIYA

2.1 Gazeta tilida sinonimlarning o'ziga xosligi.

Gazeta tilida ikki muhim xususiyat- informatsiya, axborat berish va uni ta'sirchan yetkazish bir-biri bilan chambarchas holda amal qiladi. Gazeta tilida turli janrdagi materiallarning mazmunli, aniq, ta'sirchan bo'lishini ta'minlashda tilning boshqa leksik vositalari qatori sinonimlar ham muhim rol o'ynaydi.

Gazeta tilida sinonimlar faqat takror va qaytariqlarning oldini olishda muhim leksik vosita bo'lmasdan, ta'sirchanlikni ta'minlashda ham kuchli stilistik vosita rolini bajaradi.

Gazeta tilida sinonimlarning qo'llanishi va uslubiy xususiyatlarini o'rganishda Sh.Rahmatullaev, A.Hojiyev, A.Shomaqsudov, M.Mirtojiyevlarning tadqiqotlariga asoslanish mumkin. Prof. A.Hojiyevning "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati" kitobi sinonimlarning ma'nosi, qo'llanish, doirasini belgilashda asosiy manbalardan hisoblanadi.³⁰

Sinonimik qatordagi so'zlar tushunchaning belgisini turli daraja bilan ifodalashi mumkin. Sinonimik qatordagi ba'zi so'zlar belgini normal daraja bilan (neytral) ifodalasa, ba'zilari kuchli darajasini ko'rsatishi mumkin; ayrimlari belgini kuchsiz daraja bilan ifodalaydi. Masalan, *ovora*, *sarson*, *sargardon* sinonimik qatorida *ovora* so'zi belgining kuchli-kuchsizligiga nisbatan neytral holatda. *Sarson* so'zi belgining kuchliroq darajasini ko'rsatadi. *Sargardon* so'zida esa belgi

³⁰ Хожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – 308 бет.

darajasi yana ham kuchliroq. *Yaxshi, durust, tuzuk, binoyi* sinonimik qatorida *durust, tuzuk, binoyi* so'zlari belgini yaxshi so'zidagiga nisbatan kuchsiz darajada ifodalaydi.

Sinonimik qatordagi so'zlar emotsional bo'yoqdorligiga ko'ra o'zaro farqlanishi mumkin: emotsional bo'yoqli va emotsional bo'yoqsiz so'zlar. Emotsional bo'yoqli so'zlar salbiy yoki ijobiy emotsiya-ni (munosabatni) ifodalashiga ko'ra ikki turga: ijobiy emotsional bo'yoqli va salbiy emotsional bo'yoqli so'zlarga bo'linadi. Masalan, *yuz, bet, aft, bashara, turq, chehra, jamol* sinonimik qatorida *yuz* — neytral, *bashara, turts* — salbiy emotsional bo'yoqli, *chehra, jamol* ijobiy emotsional bo'yoqli so'zlardir.

Sinonimik qatordagi so'zlar nutqning biror turiga, uslubiga xosligi jihatidan ham o'zaro farqlanishi mumkin. Masalan, *sovg'a, hadya, tortiq, armug'on, tuhfa* sinonimik qatorida *tuhfa* va *armug'on* so'zlari kitobiy uslubga xos. *Upich, bo'sa, muchchi* sinonimik qatorida *bo'sa* poetik uslubga xos, *muchchi* esa folklor asarlarida uchraydi.

Sinonimik qatordagi so'z hozirgi adabiy til nuqtai nazaridan eskirgan bo'lishi mumkin. Masalan, *xursandlik, sevinch, tsuvonch, shodlik, surur, farah, bexbudlik* so'zlari eskirgan so'zlardir. *Foyda, naf, manfaat, hayon* sinonimik qatorida *hayon* eskirgan so'z.

Sinonimik qatordagi so'z adabiy tilga yoki dialektlarga xos bo'lishi mumkin. Masalan, *ovoz, tovush, sado, sas* sinonimik qatorida *sas* so'zi; *hidirmoq, axtarmots, izlamots, istamots* qatorida *istamots* so'zi dialektal so'z hisoblanadi.

Sinonimik qatordagi so'zlar ko'p yoki oz qo'llanishiga ko'ra o'zaro farqlanishi mumkin. Masalan, *matssad, niyat, muddao, murod, tsasd* sinonimik qatoridagi *matssad* va *niyat* so'zlari qolganlariga nisbatan ko'p qo'llanadi/ *Boshqa, bo'lak, o'zga* sinonimik qatoridagi *boshqa* so'zi qolgan ikki so'zga nisbatan ko'p qo'llanadi.

Ifodalaydigan tushuncha doirasi keng bo'lgan, belgini normal darajada ifodalaydigan, emotsional bo'yoqqa ega bo'lmagan, hozirgi adabiy tilga mansub bo'lgan so'z sinonimik qatordagi boshqa so'zlarga nisbatan ko'p qo'llanadi.

Bu ko'rsatib o'tilganlar sinonimik qatordagi so'zlarning ko'zga yaqqol tashlanadigan eng muhim belgilaridir. Sinonimlar bir umumiy ma'no ifodalasalar-da, lekin ko'rib o'tilgan va bundan boshqa o'zaro farqli xususiyatlari sababli ularning har biri tilda (nutqda) o'z qo'llanish o'rniga ega bo'ladi.

Sinonimik qatorning chegarasini (bir sinonimik qatorga kiruvchi so'zlar miqdorini) belgilash uchun avvalo shu sinonimik qatordagi bosh so'zni aniq belgilash lozim bo'ladi. Bosh so'z, avvalo, sinonimik qatordagi so'zlar uchun umumiy bo'lgan ma'noni aniq ifodalaydigan so'z bo'ladi. Masalan, *balo*, *usta*, *ustamon*, *bilag'on*, *bilarmon*, *chechan*, *epchil*, *chatskon*, *uddaburon* so'zlarining hammasi «chaqqonlik va o'rinlatib bajarish mahoratiga ega» degan ma'noni bildiradi. Shu ma'noni bu sinonimik qatordagi so'zlardan *balo* so'zi juda aniq ifodalaydi. Boshqalarining o'zaro sinonimligi ham xuddi shu *balo* so'ziga qiyoslash orqali belgilanadi.

Bosh so'z, odatda, hozirgi adabiy tilga mansubligi, emotsional bo'yoq va uslubga ko'ra neytralligi, ko'p qo'llanishi bilan xarakterlanadi. Masalan, *chiroyli*, *go'zal*, *husndor*, *husnli*, *xushro'y*, *ko'hlik*, *ko'rkam*, *barno*, *zebo*, *suluv*, *latofatli*, *sohibjamol* sinonimik qatorida chiroyli so'zi xuddi shunday xususiyatga ega bo'lgan so'zdir.

Shuni aytish kerakki, sinonimik qatordagi har bir so'zga qarata aytilgan fikr-mulohaza shu so'zni qo'llashda amal qilinadigan qat'iy hukm deb emas, balki tavsiyalar deb qaralishi lozim. Masalan, *avval*, *ilgari*, *oldin*, *burun*, so'zlari «o'tgan vaqtlar(da), hozirgi vaqtga qadar» ma'nosini bildiradi. Bulardan *ilgari* so'zi *avval*, *oldin* so'zlariga nisbatan uzoqroq o'tmishni bildiradi. *Burun* so'zi ilgari so'ziga nisbatan ham uzoqroq o'tmishni, *qadim* so'zi *burun* so'ziga nisbatan ham uzoqroq

o'tmishni bildiradi. Lekin bu nisbatan yaqin o'tmishni ifodalashda *avval*, undan uzoqrog'ini ifodalashda, albatta, *ilgari*, undan ham uzog'ini ifodalashda, albatta, *burun*, yana ham uzog'ini ifodalashda, albatta, qadim so'zi qo'llanadi degan gap emas. Har qanday uzoq o'tmishni ifodalashda *avval*, *ilgari* so'zlaridan foydalanish mumkin. Lekin *ilgari*, *burun*, qadim so'zlari ko'rsatib o'tilgan xususiyatga ega. Nutqda har bir konkret holatni hisobga olgan holda ana shu so'zlardan muvofiq'ini qo'llash fikrning aniq ifodasi uchun ma'lum darajada yordam beradi.

Sinonimik qatordagi ba'zi so'zlar orasidagi farqli xususiyat juda sezilarsiz, yo'q darajada bo'ladi. Bunday hollarda ularning o'zaro farqli xususiyati haqida hozircha qat'iy bir gap aytmaslik, faqat ular uchun umumiy bo'lgan ma'noning izohi bilan chegaralanish ma'qul ko'rildi.

Sinonimlar gazeta tilida ham muhim stilistik vosita rolini bajaradi³¹. Ular ekspressivlikni, ta'sirchanlikni ta'minlash, rang-baranglikka erishish, takror va qaytariqlarning oldini olishda muhim ro'l o'ynagan. "Zarafshon" gazetasida qo'llanilgan sinonim so'zlarning xususiyatlarini yuqorida qayd etilgan ilmiy ishlar, xususan, prof.A.Abdusaidov tadqiqotlariga asoslanib, yoritishga harakat qildik.

Vatan, *mamlakat*, *yurt*, *diyor*, *el*, *mulk* kabi sinonim so'zlariga A.Hojiyevning "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati"³² da quydagicha ta'rif berilgan: Kishi tug'ilib o'sgan, o'zi uning fuqorasi bo'lgan joy, hudud. *Vatan* so'zida fuqora xalq tushunchasi, u mansub bo'lgan joy tushunchasi bilan birlashgan, shuningdek, unda joy (hudud) ning fuqorasi xalqqa mansubligi, uning yashash ottenkasi aks etib turadi. *Mamlakat* ko'proq adabiy nutqqa xos bo'lib, unda "yashash joy" ottenkasi juda kuchsiz, hatto yo'q darajada bo'ladi. Bu so'z umuman biror xalq yoki xalqlar uchun umumiy (birlashtiruvchi) hududni bildiradi. *Yurt* ko'proq

³¹ Абдусайдов А. Газета тилининг лексик-стилистик хусусиятлари. – Самарқанд, 1991, 42-55-бетлар.

³² Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг қисқача луғати. - Тошкент: Фан, 1963, 74-бет.

oddiy nutqqa xos va ma'lum joy bilan shu joyga mansub xalqni ham qo'shib ifodalay oladi. *El* nisbatan eskirgan, hozir ko'proq poetik asarlarda uchraydi. *Diyor* poetik uslubga xos. Bu so'z umuman ma'lum bir joy ma'nosida (ma'lum xalqqa mansublik tushunchasi) ham qo'llanadi.

Gazeta tili uchun, asosan mamlakat , vatan ba'zan esa yurt so'zlarining qo'llanilishi xarakterlidir. Misollar: *Vatan* aziz jasorat mangu (Z., 19.01.2013. 2-bet, sarlavha). Shuning uchun ham *vatanimiz* mustaqilligining ilk yillarida jismoniy va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosiy darajasiga ko'tarildi(Z., 19.01.2013. 2-bet). Gazeta tilida vatan sinonimi asosan xabar tilida qo'llaniladi. Bu shubhasiz *mamlakatimizning* har jabhada yildan yilga barqaror rivojlanib borayotgani va natijada turmushimizning yanada obod bo'lib borayotganidan dalolatdir (Z., 12.03.2013.1-bet). Bir so'z bilan aytganda, *mamlakatimiz* rahbari tashabbusi va ko'rsatmalari bilan qishloq joylarda namunaviy loyhalar asosida uy-joylarning keng ko'lamda barpo etilayotganligi nafaqat bugunni, balki ertasini o'ylab mehnat qiladigan xalqimiz orzu-istaklarining ro'yobidir (Z., 12.03.2013.2-bet).

Misollarda ko'rinadiki, vatan va mamlakat so'zlarini bimalol almashtirish mumkin, chunki ularda, asosan, bir xil uslubiy ma'no ifodalangan. Ammo hamisha ularni o'zora almashtirib bo'lmaydi. Misol: Yevropaning ayrim *mamlakatlarida* ipoteka bozori bugungi kunda to'liq tiklanmay, moliya bozorining bir qator tarmoqlarida boqimanda qarizlarning ko'payib borayotgani katta muammolarini keltirib chiqmoqda (Z.,12.03.2013.2-bet).

Ushbu misollarda almashtirish mumkin , lekin ma'no nozikligi jihatidan farq qiladi: *Yurtimiz* tinchligi fuqoralarimizning osayishta turmush kechirishi, sarhadlarimiz daxlsizligi harbiylarning sergak va ogohligiga bog'liq (Z., 19.01.2013.1-bet). Bundan ham ko'rinib turibdiki sinonimlarni o'z o'rnida qo'llanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Puxta, pishiq, mustahkam, mahkam, chidamli. A.Hojiyevning “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”³³ da quyidagicha ta’rif berilgan: Buzilish, yirtilish kabilarga chidamlilik darajasi yuqori omonatning aksi. *Puxta*, pishiq narsalarning buzilish, yirtilish, uzulishiga chidamlilik darajasi yuqori degan ma’noda keng qo‘llaniladi. *Mustahkam* asosan buzilishga chidamlilik darajasi yuqori degan ma’noda qo‘llanadi. *Mahkam* bu ma’noda kam qo‘llanadi. Misollar: *Mustahkam* oila poydevori (Z., 10.09.2013,2-bet,sarlavha). Ildizlari *mustahkam* daraxt (Z., 10.09.2013,2-bet,sarlavha). Otaxonning ildizlari *mustahkam*, barchaga foydasi tegayotgan daraxtga qiyoslagig keladi (Z., 10.09.2013,2-bet). Ushbu misollarga e’tibor qaratsak, ulardagi ma’no nozikligi o‘z o‘rnida qo‘llanilgan hollarga duch kelamiz. Gazeta tilida asosan *mahkam* sinonimi faol qo‘llanilgan.

Rostdan, chindan, haqiqatdan, darhaqiqat sinonimik qatorga A.Hojiyevning “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati” da quyidagicha ta’rif berilgan: Haqiqiy holatda, rosti bilan, yolg‘onchining aksi. *Chindan* so'zi rostdan so'ziga qaraganda kam qo'llanadi. *Haqiqatdan, darhaqiqat* so'zlari oddiy so'zlashuvda *chindan* so'ziga nisbatan ham kam qo'llanadi. Gazeta tilida asosan daehaqiqat, haqiqatdan so'zlari eng ko'p qo'llanuvchi sinonimlardir. Misollar: *Darhaqiqat*, bunda bog‘lar turli manzarali daraxt va gullar ekilgan, ko‘kalamzorlashtirilgan maskan hisoblanadi(Z., 26.02.2013,4-bet). *Darhaqiqat*, ancha vaqtgacha bu yerda egoizmni fazilat deb hisoblaydi(Z., 24.01.2013,4-bet). Minotavr va sikloplar *haqiqatdan* mavjud bo‘lganmi?(Z., 7.02.2013,5-bet, sarlavha). *Rostdan* ham, diqqat bilan kuzatsangiz, yolg‘onchini so‘zidan avval ko‘zidan bilib olsa bo‘ladi (Z., 24.01.2013,4-bet). Bu kabi sinonim so‘zlarni odatiy so‘zlashuv nutqimizda ishlatamiz. Gazeta tilida ham bu kabi kirish so‘zlar qo‘llanishi ancha keng. *Chindan* va *rostdan* sinonim so‘zlarni almashtirib qo‘llashimiz mumkin. Bu sinonim so‘zlar gazetada samarali ishlatigan.

³³ Хожиев А. Ўзбек тили синонимларининг қисқача луғати. - Тошкент: Фан, 1963, 85-бет.

Aniq, ochiq, yaqqol, ravshan, yorqin, oydin, ayon sinonimik qatorga A.Hojiyevning “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati” da quyidagicha ta’rif berilgan: Eshitish, ko‘rish, tushunish jihatdan yaxshi, to‘la ifodali. Aniq eshitish, tushunish va ko‘rish jihatdan yaxshi ma’nosini ifodalash uchun qo‘llanaveradi. *Ochiq* tushunish jihatdan yaxshi ma’nosini bildiradi. *Yaqqol* ko‘proq ko‘rish va eshitish jihatdan bo‘lgan belgiga nisbatan qo‘llanadi. Ravshan so‘zida belgi darajasi kuchli va u ifodaning eshitish, ko‘rish va tushunish jihatdan to‘laligini bildirish uchun qo‘llana oladi. Lekin bu so‘z nisbatan kam uchraydi. *Yorqin* yozma nutqqa xos bo‘lib, ko‘rinish va tushunish belgisiga nisbatan qo‘llanadi. *Oydin* ifodaning tushunish jihatdan yaxshi ekanini kuchliroq ottenka bilan ifodalaydi. Bu so‘z *ochiq* so‘zi bilan juft so‘z holida (*ochiq-oydin*) ham qo‘llanadi. Gazeta tilida asosan bu sinonim so‘zlardan *aniq* eng ko‘p qo‘llaniladi. Misollar: Kam ta’minlangan, boquvchisini yo‘qotgan oilalarni *aniq* manzilli asosida ijtimoiy himoya qilishni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar istiqbolda ham izchillik bilan amalga oshiriladi (Z., 26.02.2013,2-bet). Unga bizga keksalik yoshiga yetgan har bir fuqora albatta, moddiy ta’minotga egaligini, *aniqrog‘i* pensiya olishni aytganimda kulib qo‘ya qoldi(Z., 26.02.2013,4-bet).

Adolat, *odillik* sinonimik qatorga A.Hojiyevning “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati” da quyidagicha ta’rif berilgan: Xolis va haqqoniy xatti-harakat, xolat. *Adolat* asosan qonun-qoida va umum ishidagi xatti-harakatga nisbatan qo‘llanadi. *Odillik*, aksincha, oddiy munosabatlardagi xolis va odilona xatti-harakat ma’nosini ifodalashda ko‘proq qo‘llanadi.

Gazeta tilida qo‘llanilayotgan bu kabi sinonim so‘zlar unchalik ko‘pchilikni tashkil qilmaydi. Ammo mazmun jihatdan ham matnga mos ravishda qo‘llanilgan. Misollar: Ulug‘ saltanat salohiyati *adolat* va ezgu g‘oyalarga qurilgani bilan qudratli edi(Z., 9.04.2015, 1-bet, sarlavha). *Adolat* –hayotimizning bosh mezon (Z.,28.03.2015,2-bet).

Davolamoq, *tuzatmoq* sinonimik qatorga A.Hojiyevning “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati” da quyidagicha ta’rif berilgan: *Davo* (muolaja) bilan

kasal- ni ketkazmoq. Davolamoq kasalni ketkazishning (tuzatishning) dori-darmon bilan bo'ladigan usulini bildiradi. *Tuzatmoq* fe'li esa, qanday yo'l bilan bo'lishidan qat'i nazar, umuman kasalni ketkazish, dard-kasaldan holi qilish ma'nosini bildiradi. Misollar: Bunday anjumanlarda dunyo tibbiyotida bo'layotgan o'zgarishlar, ayniqsa, yangi kashf qilingan dori-darmonlar, *davolashning* yangicha usullari haqida keng ma'lumot olishimiz mumkin (Z.,9.04.2015,2-bet). Mehnat faxriylarini statsionar va ambulatory sharoitda *davolashning* ma'lumotlari elektron bazasi yaratilib, har oyda bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazi bilan axborat almashish tartibi joriy etildi (Z.,17.03.2015, 5-bet).

Rivoj, taraqqiy, taraqqiyot, ravnaq sinonimik qatorga A.Hojiyevning "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati" da quyidagicha ta'rif berilgan: (Biror narsada) kamolot tomon o'sish, yuksalish holati. Rivoj keng qo'llanadi. *Taraqqiy, taraqqiyot, ravnaq* ma'noni rivoj so'ziga nisbatan kuchliroq darajada ifodalaydi Taraqqiy mustaqil holda kam qo'llanadi. U ko'pincha topmoq, etmoq fe'llari bilan birga qo'llanadi: taraqqiy topmoq, taraqqiy etmoq kabi. *Taraqqiyot* so'zida harakat belgisi kuchliroq bo'lib, ko'pincha «rivojlanish» ma'nosida qo'llanadi. *Ravnaq* kitobiy.

Suhbatlashmoq, suhbat qilmoq, hasratlashmoq, otamlashmoq, hangamalashmoq, gurunglashmoq, gurung qilmoq sinonimik qatorga A.Hojiyevning "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati" da quyidagicha ta'rif berilgan: Gap-suhbatda bo'lmoq. *Hangamalashmoq, gurunglashmoq* so'zlari odatda birdan ortiq kishi o'rta- sida bemalol, rohatlanib o'tirib bo'ladigan suhbatlashishni bildiradi. *Otamlashmoq* ko'proq oddiy so'zlashuvga xos bo'lib, odatda ezilib (yozilib) o'tirib bo'ladigan davomli suhbatni bildiradi. *Hasratlashmoq*da oddiy suhbat emas, balki dard-hasrat aytishish ham bo'ladi. Gazeta tilida asosan *suhbatlashmoq* sinonim so'zi eng faol qo'llanilgan. Misollar: Anchadan buyon ko'rishmaganimizga suhbatimiz qur olib miriqib *gurunglashdik* (Z., 8.06.2014,1-bet). Mehmonlar har bir ob'ektning qurilish tarixi, bugungi holati haqida gid-ekskursovodning so'zlarini tinglash barobarida, mahalliy sayohlar bilan

ham *suhbatlashib*, samimiy munosabatlarini ifoda etishga harakat qilishardi(Z., 14.03.2015, 3-bet). Turli millat vakillari bilan *suhbatlasha* olishqobiliyati bor ekan, o'sha xalqning ruhiyati, dunyoqarashi, madaniyati haqida tushunchaga ega bo'lib boraverasiz (Z.,18.02.2012, 2-bet). Misollardan ham ma'lum bo'ldiki, *suhbat* sinonim so'zi bilan *gurunglashmoq* so'zlari o'z ma'no mazmuniga ko'ra qo'llanilgan.

2.2 Sifat turkumiga oid sinonimlarning ifodalanishi.

So'zlarning shakil va ma'no munosabatlari. Tildagi ayrim so'zlar shakily jihatdan, ayrimlari ma'no jihatdan, bir xillari esa talaffuz jihatdan o'xashash bo'ladi. Ayrim s'zlarning ma'naolari esa bir-biriga qarama-qarshi bo'ladi. Ana shu xususiyatlarga ko'ra so'zlar ham bir necha guruhlarga bo'linadi.

Sinonim so'zlar ham mazmun mohiyatiga binoan bir necha guruhlarga ajratiladi. Shulardan bir sifat so'z turkumiga oid sinonim so'zlardir.

Ulug', *buyuk*, *azim*, *azamat*, *ulkan* so'zlarining belgi darajasi nisbatan kuchli. *Ulug'*, *buyuk*, *ulkan* kabilarning ishlatilishi gazeta tili uchun xarakterlidir. Misol: *Uulkan* ishlab chiqarish tsexi o'qida aylanayotgan, harakatlanayotgan yuzlab-minglab mexanizmlarning bir maromdagi sekin guvillashi bilan to'lgan (Z.,11.10.2014, 2-bet). Samarqandning dunyoga mashhur tarixiy obidalari va muqaddas ziyoratgohlar, mustaqillik yillarida bunyod etilgan zamonaviy bino va inshootlar, bog' va xiyobonlarni tomosha qilish jarayonida mehmonlar Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida mamlakatimizda qisqa fursatda asrlarga tatigulik *ulkan* bunyodkorlik ishlari amalga oshirilganini e'tirof etdilar (Z.,31.08.2014,2-bet). *Buyuk* kelajagimiz davomchilari jajji bolakaylarning chiqishlarida qadimiylik, xalqimizning azaliy an'analari, urf-odatlarini o'zida mujassam etgan Navro'zning chinakam tarovati aks etdi (Z., 24.03.2015,2-bet). Jumladan, tizimda olib borilayotgan islohotlar natijasida *buyuk* kelajagimiz vorislari bo'lgan yoshlarimiz viloyat, respublika hamda xalqaro miqyosdagi fan olimpiadalar, sport musobaqalarida Vatanimiz sharafini munosib himoya

qilmoqdalar(Z., 1.10.2015,3-bet). *Buyuk* va muqaddas vatanning *ulug‘* bayrami(Z., 3.09.2014, 2-bet).

Ulug‘ va *buyuk* so‘zlari, asosan maqola, lavha, ba‘zan korrespondentsiyalarda uchraydi. Bu so‘zlar ma’nosining deyarli bir xilligi, xar ikkalasining ham kuchli ottenkaga egaligi ularni o‘zaro almashtirish imkonini beradi. Misollar: Ota-bobolarimiz, *ulug‘* ajdodlarimiz izidan borib, o‘z iqtidori, salohiyati bilan dunyoga tanilayotgan farzandlarimiz qanchadan-qancha (Z.,30.01.2015,3-bet).

Ushbu misolda esa *ulug‘* so‘zini *buyuk* bilan almashtirish mumkin emas, chunki misolda yoshi katta insonlar haqida fikr yuritilayapti. Misol: Yoshi *ulug‘* kishilar yaxshi bilishsa-da bu gaplarni endi yoshlarimiz quloqlariga takror va takror aytib turmog‘imiz lozimga o‘xshaydi (Z.,30.01.2015, 3-bet).

Quyidagi misolda “*ulug‘*” so‘zidan ko‘ra “*katta*” so‘zini ishlatish ma’noni aniq ifodalashga xizmat qiladi. Chunki bu misolda katta yoshdagi kishilar nazarda tutilmoqda: To‘yxonalarni aytmysizmi? Yoshi *ulug‘* odamlardan ko‘ra, hali yigirmaga to‘lmagan yoshlar ko‘p. Ular to tongga qadar davom etadigan bazmlarda siz-u biz bilan bemalol o‘tirib "otam"lashadi (Z.,30.01.2014, 2-bet).

“O‘zbek tili sinonimlarining izohli lugati”da qayd etilishicha, *ulkan* eskirgan. Lekin bu so‘z gazeta tilida nisbatan faol qo‘llanadi. *Uulkan* so‘zi xabar, maqola, reportaj, ocherk va lavhalar tilida uchraydi. Bu so‘zni ko‘pincha *katta*, ba‘zan esa *ulug‘*, *buyuk* bilan almashtirish mumkin. Jurnalistlar *ulkan* so‘zini, ma’no ottenkasini alohida hisobga olgan holda, ustalik bilan ishlatishgan. Misollar: Azaldan yilboshi, odamlarga quvonch bag‘ishlovchi bayram sifatida nishonlanib kelinayotgan mazkur qadriyatimizning tiklanishi hamda yangicha mazmun va mohiyat kasb etayotgani xalqimizni *ulkan* yutuqlar, zafarlar sari (Z., 24.03.2015,3-bet). Ular orasida ulkan muvaffaqiyatlarga erishayotganlar, oilasi bilan bir qatorda jamiyatning ham yukini yengil qilayotganlar ko‘pchilikni tashkil etadi (Z., 8.03.2015,3-bet).

Ma'lumki, hajm-o'lchov bildiruvchi sifatlardan katta so'zi hozirgi o'zbek tilining lug'at tarkibida ko'p qo'llanadigan va barchaga ma'nosi tushunarli faol so'zlar sirasiga kiradi. *Katta* so'zi «hajmi, o'lchami nisbatan ortiq, ulkan» ma'nosini anglatadi. Ushbu leksema *ulug', zo'r, azim, azamat, ulkan, bahaybat, haybatli, yirik, gigant* so'zlari bilan sinonim bo'lib, hajm-o'lchovning odatdagidan ortiqligi ma'nosini bildiradi. *Katta* so'zi keng tushunchaga ega. U aniq, shuningdek, mavhum tushunchalarga nisbatan qo'llanadi.

Katta so'zi stilistik bo'yoyqa boy so'zlardan bo'lib, xilma-xil emotsional-ekspressiv ottenkalarni yuklashga xizmat qiladi. Masalan, «daraja kuchi yuqori, buyuk, zo'r» ma'nosida ishlatiladi: Ko'rinishidan polvonlar katta niyatlar bilan kelibdi. «Yosh jihatdan ulug', ortiq» ma'nosini beradi: Katta kelin astagina o'rnidan turdi. Mazkur sifat «yuqori lavozimdagi» ma'nosida ishlatiladi: Shahar ma'muriyatining katta xabarlarini tashrif buyurishdi.

Gazeta matnlarida *katta* so'zining qo'llanishi juda ko'p uchraydi. Misollar: Ko'rgazmaning ochilishida O'zbekistonlik san'atkorlar tomonidan taqdim etilgan milliy musiqiy dastur va rang-barang raqslar, o'zbek milliy liboslari namoyishi ham mehmonlarda *katta* qiziqish uyg'otdi (Z., 3.11.2013,2-bet). Boy tarix, betakror madaniyat va an'analarga ega O'zbekiston jahon sayyohlik bozorida *katta* obro' qozonchilik haqida keng ma'lumotga ega bo'lish imkoni yaratilgan (Z., 3.11.2015,4-bet). Marosimda festival g'oliblari va yurtimiz san'at ustalari tomonidan katta kontsert namoyish etildi (Z.,31.08.2014,2-bet).Muhtaram Yurtboshimiz tomonidan 2012 yilning "Mustahkam oila yili" deb nomlanishi va bu yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan ishlar barchamizning zimmamizga katta mas'uliyat yuklaydi (Z., 24.03.2012).

Gazeta tilida *qiyin* sinonimik qatorining qo'llanilishi xam xarakterlidir. Bu qatorda *mushkul, mahol, og'ir, mashaqqatli, sermashaqqat, amri mahol, dushvor* kabilar mavjud bo'lib (A.Hojiev lug'ati, 253-bet), gazeta tilida, ko'pincha, *qiyin, og'ir, mashaqqatli* ishlatilgan. Ba'zan kuchli ottenkali *mushkul* so'zi ham uchraydi. Misollar: Qog'ozlarga gul solamiz. Naqshlardagi ranglarni o'simlik va

meva po'chog'i va Obirahmat suvidan tayyorlaymiz, - deydi Malika To'raeva. Kuzatib turgan kishi uchun biroz *qiyin* tuyulishi mumkin (Z.,15.01.2013). Nahotki, hali nav nihol bu bolalarni tartibga chaqirish, kerak bo'lsa, dakki berish, jamoatchilik oldida izza qilish *qiyin* bo'lsa (Z.,30.01.2012).

Gazeta tilida *mazmun-mohiyat, obro'-e'tibor, hurmat-e'tibor, xohish-istak, tartib-intizom, axlat-chiqindi, halol-nokiza, sarf-xarajat, kamchilik-nuqson kamchilik-qusur // xato-kamchilik, chora-tadbir, qo'llab-quvvatlab, g'ayrat-shijoat* va boshqa juft sinonimlar faol ishlatilmoqda. Misollar: Davlatimiz rahbari "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali ishtirokchilari va mehmonlarni qutlar ekan, mazkur festivalning mazmun-mohiyati, betakror ruhi, qiyofasi va sharqona falsafasi haqida to'xtaldi, festival ishtirokchilariga ijodiy zafarlar tiladi (Z.,27.08.2012). Mamlakatimizda Yurtboshimiz tashabbusi bilan milliy-diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, islomning ma'rifiy g'oyalarini rivojlantirish, diniy bag'rikenglikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda (Z., 22.10.2011). Bu yurtdoshlarimizga muqaddas ibodatlarini to'la-to'kis amalga oshirishlari uchun davlatimiz tomonidan yaratilayotgan yana bir qulaylikning yorqin ifodasidir (Z., 22.10.2011). Er yuzining turli mintaqalarida boy tarixiy-milliy musiqa va qo'shiqchilik an'alarini *asrab-avaylab*, davom ettirib kelayotgan ijodiy guruh va ansambllar o'z dasturlari bilan ishtirok etmoqda (Z., 27.08.2012). To'xta, bolakay bu yo'ldan qayt! Zamon seniki, yorqin kelajak seniki, Vatan seniki! Sen *el-yurtga*, orzu-umidlaringga ega (Z.,30.01.2010). Forum davomida yoshlarning bu kabi fikr va takliflariga viloyat hokimi Z.Mirzaev, "Kelajak ovozi" YoTM boshqaruvi raisi K.Beknazarov, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni ma'sul xodimi R.Komilov va boshqalar aniq javob berib, ularni *qo'llab-quvvatladilar*. Aktsiya davomida barcha tadbirlardagi singari forumda ham eng yaxshi ratsionalizatorlik taklif mualliflari taqdirlandilar (Z.,12.04.2012). Ikkinchidan, mahalla-ko'y, qo'ni-qo'shni hushyor bo'lmog'i talab etiladi. Qo'shni bolasining *fe'l-atvorini* bilmagan hamsoyalar, oqsoqollar kamdan kam topiladi. Ularning kuchidan, madadidan foydalanmoq kerak (Z.,30.01.2010). Bosh

Qomusimizga muvofiq yurtimizda vijdon erkinligi huquqiy asoslangani bois, har yili yurtdoshlarimiz muqaddas islom dinining barcha arkonlari, xususan, Haj ziyoratini *emin-erkin*, qanoat hamda shukronalik bilan ado etishayotir (Z., 22.10.2011). Viloyat jamoatchilik vakillari bo'lajak hojilarning ibodatlarini to'la-to'kis ado etish borasidagi tartib-qoidalariga to'liq amal qilib, ozod va farovon yurt fuqarosi sifatida mamlakatimiz obro'-e'tiborini ziyoda qilishlariga ishonch bildirishdi (Z., 22.10.2011). Sog'lom turmush tarzimizga chang solayotgan bunday *balo-qazoga* o'zini urayotgan yoshlarimizni to'g'ri yo'lga solish, jamiyatimiz uchun bilimli, aqli raso, ma'nan yetuk avlodni tarbiyalash hamda azbaroyi asrab qolish uchun ham yuqoridagi dalillarni yetkazdik (Z., 30.01.2014). Turli mavzularda *bahs-munozaraga* kirishadigan yoshlar o'z doirasida, jurnalistikaga qiziqqanlari yana bir guruhda, sog'lom turmush tarafdorlari, chet tilini o'rganayotganlar - xullas, ko'zlari chaqnab turgan yigit-qiz borki, bu erda o'ziga mos guruhni topib, qiziqishlari doirasida yangiliklardan boxabar bo'ldi, kimgadir o'rgatdi, kimdandir o'rgandi (Z., 12.04.2015). Xiyobon-u ko'chalar bolakaylarning *sho'x-shodon* kulgulari bilan to'ldi. Mahallalar, korxona va tashkilotlardagi bayram sayillarida otaxon va onaxonlar Yaratgandan yurtimizga tinchlik, obodlik, xonadonlarimizga baraka so'rab, duoga qo'l ochdilar, ertamiz egalari shijoatli yoshlarga uzoq umr tiladilar (Z., 24.03.2014).

Juft sinonimlar ma'noni kuchaytirish, fikrni ta'sirchan ifodalashda muhim vosita ekanligini gapda yakka holda qo'llangan quyidagi misol bilan qiyoslash orqali ham bilib olish mumkin: Bolajonlarning *sho'x* kulgulari bilan yana ham jozibali yangragan *kuy-qo'shiqlar*, folklor jamoalarining milliy urf-odat va an'analarimizdan iborat dasturlari, sportchi va harbiylarning chiqishlari, poytaxtdan kelgan hamda samarqandlik san'atkorlarning vatanimiz madh etilgan, uning mehnatkash insonlari ulug'langan va tinchlik tarannum etilgan navolari, umuman, shu kuni "Mo'jiza"dan taralgan har bir ohang unutilmas taassurotlarga boy bo'ldi. Uning shukuhi dillardan-dillarga ko'chdi (Z., 3.09.2011). Qiyos: *sho'x* *sho'x-shodon*.

Sinonimlarning turli xususiyatlari bo'yicha yuqoridagi fikrlarga asoslanib, gazeta matnlarida ulardan foydalanish, sinonimlarning ma'no nozikliklari, imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, jurnalistlarning mahoratini o'rganish gazeta tili muammolari orasida muhim masalalardan hisoblanadi.

III BOB. GAZETA TILIDA FRAZEOLGIK SINONIMIYA.

3.1 O'zbek tilida frazeologik sinonimlar.

Har bir til o'zining boy sinonimik vositalariga ega. Lug'aviy, grammatik, frazeologik va leksik-frazeologik sinonimlar tilning beboho boyligi sanaladi. Bu boylikdan o'rinli va maqsadga muvofiq holda foydalanish nutqning ta'sirchan va ifodali bo'lishiga olib keladi. Shuning uchun ham shoir va yozuvchilar, mashhur so'z ustalari tilning sinonimik boyligidan o'rinli foydalanishga alohida e'tibor berib kelganlar.

Lekin tilshunoslikda bu borada erishilgan yutuqlarga qaramay frazeologizmlar doirasidagi sinonimiya hodisasini tadqiq etish dolzarb va muhim muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

“Frazeologiya” atamasi yunoncha “faza” (phrasis- ifoda, nutq o'rami) so'zidan olingan bo'lsa-da, turkiyshunoslikda dastlab bu atama turlich ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qilgan. Masalan, XIX asrda yashagan turkiyshunos olim Mirza Kozimbek o'sha davr an'alaridan kelib chiqib, rus tilida yozilgan boshqa tasviriy grammatikalarda bo'lgani singari o'z asarida “faza” so'zini “jumla”, “gap” ma'nosida qo'llagan. “Frazeologik birikma” deyilganda esa so'zdan yirik til birliklarini tushungan. U tyrkiy tillardagi fe'llar haqida ma'lumot berar ekan, *g'am*

yemoq, vujudga kelmoq, g'ussa yemoq singari til birliklarini "tarkibli fe'llar" deb izohlagan.³⁴

Frazeologizm, frazeologik³⁵ birlik, frazema — ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan, ma'noviy jihatdan o'zaro bog'liq so'z birikmasi yoki gapga teng keladigan, yaxlitligicha ko'chma ma'noda qo'llanadigan va bo'linmaydigan, barqaror (turg'un) bog'lanmalarining umumiy nomi. F.lar, shaklan o'zlariga o'xshash sintaktik tuzilmalardan farqli ravishda, nutqda so'zlarni erkin tanlash, almashtirish yo'li bilan yuzaga kelmaydi, balki ma'no va muayyan leksik grammatik tarkibli, avvaldan tayyor material sifatida qo'llanadi, ya'ni F. tarkibidan biror qismni chiqarib tashlash, tushirib qoldirish mumkin emas: anqoning urug'i, arpasini xom urmoq, chuchvarani xom sanamoq, terisiga sig'may ketmoq, kapalagi uchmoq, ko'ngli joyiga tushmoq, qo'li ochiq, qulog'i og'ir va boshqalar.

*Frazeologiya*³⁶(yun. phrasis — ifoda, ibora va ...logiya) — 1) tilshunoslikning tilning frazeologik tarkibini (Frazeologizm) uning hozirgi holatida va tarixiy taraqqiyotida tekshiruvchi bo'limi; 2) muayyan tildagi frazeologizmlar majmui. Tilshunoslik bo'limi sifatidagi F.ning asosiy diqqat e'tibori frazeologizmlar tabiatini va ularning kategorial belgilarini o'rganishga, shuningdek, frazeologizmlarning nutqda qo'llanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi. F.ning eng muhim muammosi frazeologizmlarni nutqda hosil qilinadigan (ya'ni avvaldan tayyor bo'lmagan) so'z birikmalaridan farklab, ajratib olish va shu asosda frazeologizmlarning belgilarini aniqlashdir.

Umuman, frazeologiya turkiyshunoslikda nisbatan yosh sohalardan biri sanaladi, chunki uni sistemali ravishda o'rganish faqat o'tgan asrning 40-50-yillaridan boshlangan edi.

³⁴ Казимбек М.А.Общая грамматика турецко-татарского языка. Выпуск II. —Казань, 1846-С. 175-179.

³⁵ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. —Тошкент: 330-бет .

³⁶ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. —Тошкент. 332-бет.

Sh. Rahmatullayevning “O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari” nomli monografiyasida frazeologik sinonimlar tahlilidan keyin chiqargan quydagi ilmiy xulosasi har jihatdan asosli: “Har bir frazeologik sinonimga to‘g‘ri va to‘liq xarakteristika berish uchun uni sinonimiya uyasi ichida olib, boshqa sinonimlari bilan qiyoslab o‘rganish zarur. Bunda sinonimlar turli-tuman nuatalardan tekshiriladi, ular orasidagi o‘xshashlik ham, farqlar ham ta’kidlanadi. Sinonimlar orasida farqlar qancha oz bo‘lsa, ularni nutqda bir-birining o‘rnida ishlatishga imkoniyat ortadi va aksincha bo‘lsa, bunday imkoniyat ozayadi. Qay darajada bo‘lmasin, sinonimlarni o‘zora almashtirishga yo‘l qo‘yuvchi kontekst mavjud bo‘ladi...”.³⁷

O‘zbek tilshunosligida frazeologik sinonimiya masalalari atroflicha o‘rganilgan, deb hisoblash mumkin. Buni M.Vafoevaning “O‘zbek tilida frazeologik sinonimlar va ularning struktural-semantik tahlili”³⁸ nomli nomzodlik dissertatsiyasida keltirilgan obzordan ham bilib olish mumkin. M.Vafoevaning nomzodlik ishida qayd etilishicha, o‘zbek tilshunosligida frazeologiyaga doir dastlabki ishlar XX asrning 50-yillari boshida yuzaga kelgan bo‘lsa, frazeologik sinonimlarni o‘rganish 60-yillardan boshlandi. Sh.Rahmatullaev 1966 yilda himoya qilgan doktorlik dissertatiyasi, shu asosda nashr etilgan "O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari" nomli monografiyasi bilan o‘zbek tilidagi frazemalarni lug‘aviy birlik sifatida o‘rganishni asosladi. Olim asarda frazeologik sinonimlar tahlilidan keyin kuyidagi ilmiy xulosalarni chiqaradi: "Har bir frazeologik sinonimga to‘g‘ri va to‘liq xarakteristika berish uchun uni sinonimiya uyasi ichida olib, boshqa sinonimlari bilan qiyoslab o‘rganish zarur. Bunda sinonimlar turli-tuman nuqtalardan tekshiriladi, ular orasidagi o‘xshashlik ham, farqlar ham ta’kidlanadi. Sinonimlar orasida farklar qancha oz bo‘lsa, ularni nutqda bir-birining o‘rnida ishlatishga imkoniyat ortadi va aksincha bo‘lsa, bunday imkoniyat ozayadi, qay darajada bo‘lmasin, sinonimlarni o‘zaro almashtirishga

³⁷ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. - Тошкент: Фан, 1966. - Б. 131.

³⁸ Вафоева М. Ўзбек тилида фразеологик синонимлар ва уларнинг структурал-семантик таҳлили. Филол.ф.н. дисс. автореферати. – Тошкент: 2009. - 26 бет.

yo‘l qo‘yuvchi kontekst mavjud bo‘ladi. Bunday almashtirish bilan nimanidir yo‘qotiladi, nimagadir ega bo‘linadi. Xuddi ana shu "nimalardir" sinonim iboralarning har biriga tilda yashash huquqini beradi".

Sinonimiya til birliklari orasidagi semantik mikrosistemalardan biri bo‘lib, leksemalar, morfemalar bilan bir qatorda, iboralar orasida ham anchagina. Ikki iborani o‘zaro sinonim deyish uchun ular ayni bir ma‘noni anglatishi shart. Busiz sinonimiya haqida gapirib bo‘lmaydi. Ayni bir ma‘nolilik teng ma‘nolilik emas, albatta. Har bir sinonim, shu sinonimiya qatori uchun umumiy ma‘no o‘zanidan tashqari, o‘ziga xos ma‘no qirrasiga ega bo‘lishi mumkin.

Sinonimlar odatda bir yoki bir necha jixatdan farqlanadi, shulardan biri ma‘no qirrasidagi farq bo‘lishi mumkin.³⁹ Masalan, *yer bilan yakson bo‘lmoq* — *yer bilan yakson qilmoq* iborasi qo‘lini ko‘kka sovurmoq — qo‘li ko‘kka sovurildi iborasiga sinonim: ayni bir ma‘noni anglatadi («butunlay yemirmoq, yo‘q qilmoq»). Bu sinonimlar, boshqa belgi-xususiyatlarida farq qilishidan qat’i nazar, ma‘no qirrasida farq qiladi: ikkinchisida ma‘no bir qadar kuchli ifodalanadi. Shuningdek, *ko‘ngl(i) bo‘sh* va *ko‘ngl(i) yumshoq* — *yumshoq ko‘ngil* iboralari o‘zaro sinonim bo‘lib, «*rahmdil, ko‘ngilchan*» ma‘nosini anglatadi; birinchi iborada «ko‘ngilchan»lik ma‘no qirrasi, ikkinchi iborada esa «rahmdil»lik ma‘no qirrasi ustun. Umuman, frazeologik sinonimlarda farqli ma‘no qirralari juda rang-barang bo‘lib, konkret yondashib izohlashni talab qiladi.

Frazeologik sinonimlarni belgilashda ular asosida boshqa-boshqa obrazning hisobga olinadi. Masalan, *bir og‘iz, bir shingil, bir chimdim* sinonim iboralari asosida har xil obrazlar yotadi: so‘zlash organi — uzum boshining bir kismi — chimdib olinadigan miqdor.

³⁹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. - Тошкент: Фан, 1966. – 131 бет.

Sinonim iboralarni bir iboraning variantlaridan ajratish kerak. Buning uchun iboralarning so'z-komponentlariga diqqat qilish lozim. Leksik tarkibida ayni bir so'z komponent qatnashmaydigan iboralarning sinonim ekani shubha tug'dirmaydi. Masalan, «*butun tafsiloti bilan, mayda-chuydasigacha*» ma'nosini anglatadigan *ipidan ignasigacha, miridan sirigacha, qilidan quyrugigacha* iboralari o'zaro sinonim bo'lib, \-lar tarkibida umumiy so'z-komponent yo'q.

Sinonim iboralar leksik tarkibida biror komponent ayni sh\ so'z bilan ifodalangan bo'lishi mumkin. Ammo bunda iboralar tarkibidagi boshqa-boshqa so'z bilan ifodalangan komponentlar o'zaro sinonim bo'lmasligi shart. Aks holda bir iboraning variantlariga teng bo'ladi. Masalan, *jon(i)ni hovuchlab* va *yurag(i)ni hovuchlab* — sinonim iboralar: bir leksik komponenti ayni bir so'z bilan ifodalangan, ikkinchi leksik komponenti esa boshqa-boshqa so'z bilan ifodalangan va bular o'zaro sinonim emas. *Kungl(i)ga tugmoq* bilan *yurag(i)ga tugmoq* o'zaro bir iboraning variantlariga teng. Chunki bir leksik komponenti ayni bir so'zning o'zi bo'lib, ikkinchi leksik komponenti esa o'zaro sinonim; (Bu variantlar sinonim so'z-komponentlarni almashtirish asosida yuzaga kelgan).

Sinonimiya — ma'no asosida belgilanadigan xodisa. Ayni bir ma'nolilik monosemantik frazeologik birliklarda ibora bilan ibora orasida belgilanadi. Agar sinonimik munosabatda polisemantik ibora qatnashsa, iboradan emas, balki konkret frazeologik ma'nodan chiqib kelib fikr yuritish lozim. Chunki xar bir frazeologik ma'no o'zicha sinonimga ega bo'lishi yoki ega bo'lmasligi mumkyn. Masalan, monosemantik *tan olmoq* iborasiga polisemantik (uch ma'noli) *bo'yn'(i)ga olmoq* iborasi birinchi ma'nosida sinonim bo'ladi. Bu uch ma'noli iboraning ikkinchi ma'nosiga sinonim yo'q, ammo uchinchi ma'nosiga *zimma(si)ga olmoq* iborasi birinchi ma'nosida sinonim (Keyingi ibora uch m'noli bo'lib, qolgan ikki ma'nosiga sinonim yo'q).

Bir sinonimik qatorga birlashuvchi iboralarning miqdori ham har xil: ko'pchilik sinonimik qatorlar ikki sinonimli; uch sinonimli qatorlar ham anchagina; to'rt iborani birlashtiruvchi qator ham bor. Masalan, *ta'zir(i)ni yemoq* iborasi

qatnashadigan qator ikki sinonimdan, *es(i)ga tushmoq* iborasi qatnashadigan qator esa to'rt sinonimdan iborat.

Bir qatorga birlashuvchi frazeologik sinonimlar nutqda oz-ko'p ishlatilishi jihatdan ham farqlanib turadi. Masalan, yuqorida ta'kidlangan "to'rt sinonimli qatorda ularning nutqda uchrash nisbati shundaydir.

Sinonimlikning kriteriyalarini aniq belgilamaslik tufayli yaqin ma'noli, iboralarni sinonim deb tushunish xavfi tug'iladi. Masalan, *avzo [y] (i) buzildi* va *kayf(i) buzildi* iboralari juda yaqin ma'noni anglatadi: har ikkisida ham kishining ruhiy xolatidagi o'zgarish ko'zda tutiladi. Chuqurroq yondashsak, birinchi iborada kishining tashqi qiyofasida taxdid, xujumkorlik alomatlari paydo bo'lgani aks ettirilsa, ikkinchi iborada yaxshi yoki normal kayfiyatning yomon kayfiyatga aylanishi bildiriladi. Bunday yaqin ma'noli iboralar tilda anchagina bo'lib, ularning ma'nolarini to'g'ri tushunib, har birini o'z o'rnida ishlatish kerak.

"O'zbek tili jadvallarida" nomli qo'llanma frazemalarning asosiy xususiyatlarini yoritish sohasida tilshunosligimiz uchun muhim qadam sanaladi, chunki bu asarda frazemalar shakl va ma'nosiga ko'ra (frazeologik omonimiya, frazeologik sinonimiya, frazeologik antonimiya), sintaktik modeliga ko'ra (so'z birikmasi modelida, gap modelida), qaysi so'z turkumiga mansubligiga ko'ra (fe'l frazeologizmlar, ot frazeologizmlar, sifat frazeologizmlar) tasnif qilingan, frazemalarning asosiy belgilari (takroriylik, idiomatiklik, barqarorlik, sinsemantik), frazeologik sinonimlardagi birlashtiruvchi ma'no turlari (quvonch, hayratlanish, achinish, xafalik, qo'rqinch, bezovtalik, masxara qilish, or-nomus, iztirob, do'q-po'psa,) ta'kidlab ko'rsatilgan. Shu bilan birga, bu ishda frazeologik birliklarning umumiy ma'nosi bilan qismlarning xususiy ma'nolari o'rtasidagi munosabatga ko'ra an'anaviy ravishda frazeologik qo'shilma, frazeologik butunlik va frazeologik chatishmalarga ajratilgan.⁴⁰

Tilimizning lug'at boyligini so'z va frazeologizimlar tashkil etadi. Lug'at tarkibida til birligi so'z hisoblansa, frazeologik tizimida frazeologik birlik yoki

⁴⁰ Йулдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографияси масалалари. –Тошкент: 2013, 52-бет.

ibora til birligi sanaladi. Soʻz ham frazeologizm ham lugʻaviy birlikdir. Har qanday tilning boyishi faqat yangi soʻzlar hisobiga emas, balki turgʻun birikmalar orttirib boorish hisobiga ham sodir boʻladi.

Soʻzlar toʻgʻridan-toʻgʻri predmetni nomlab, atab kelsa frazeologizmlarda kuchli obrazli atash maʼnosi anglashiladi. umuman olganda, frazeologik maʼnoning hajmi leksik maʼnoning hajmiga nisbatan keng va murakkabligi bilan ajralib turadi.

3.2 “Zarafshon” gazetasida qoʻllanilgan leksik-frazeologik sinonimlar.

Gazeta tilida qoʻllanilayotgan leksik frazeologik-sinonimlarning oʻz imkoniyatlari yuzasidan ifodalanilayotgan holatlarni uchratamiz. Har tamonlama toʻgʻri qoʻllanilayotgan frazeologik sinonimlar gazeta uchun muhimdir. Bu kabi matnlarning bir qanchasini koʻrib chiqishga urindik.

Tilimizda *koʻngilmni togʻday koʻtarmoq* frazeologizimi mavjud. Uning asosi hisoblangan *koʻngil* soʻzi bilan bogʻliq iboralar Sh.Rahmatullayev izohli frazeologik lugʻatida quydagicha izohlangan. *Koʻngl(i)ni togʻday koʻtarmoq* nima kimning — *Koʻngli togʻday koʻtarildi* kimning xursand kilib, benixoya ruhlantirmoq. Sinonimi: *koʻkrag(i) togʻday koʻtarildi* kimning Nuri opa, esonmisiz? Bizning kulbaga qadam qoʻyishingiz koʻnglimni t o gʻ d e k koʻtardi. Bu kabi leksik frazeologik sinonimlarga gazeta tilida ham unumli qoʻllanilmoqda.

Misollar: Ayniqsa, mehmonlarning chet eldan ekani va gaplarimni diqqat bilan tinglagani *koʻnglimni togʻday koʻtardi* (Z., 14.03.2015,3-bet). Bugun kelib, rosti, oʻzgarishlardan *koʻnglim yanada yorishdi, dilim quvnadi* (Z., 14.03.2015, 3-bet). Ochiq chehra, shirinsuxanlik, xushtavozelik, xushchaqchaqlik oʻzora muloqatga kirishgan kishilarning kayfiyatini koʻtaradi, *koʻnglimni yozadi* (Z., 17.01.2015, 4-bet). Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, eng muhimi, biz kabi

keksalarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik va e'tibordan *boshimiz ko'kka yetdi* (Z.,2.04.2015,1-bet). Yangi uylarga, xonadonlarga borsam, *bahri dilim yorishadi* (Z.,17.01.2015, 5-bet). Bu misollardan ham ko'rinadiki biri ikkinchisidan mazmun jihatdan ham qisman farqlanib turadi. *Ko'nglimni tog'day ko'tardiga* nisbatan *ko'nglim yanada yorishdi* frazeologik sinonimi mazmun jihatdan yuqoriroq ma'no kasb etadi.

Bu xonadonda kutilmagan mehmon bo'lmaydi, eshigi ham, dosturxoni ham *ko'ngliday ochiq* (Z.,14.03.2015,3-bet).

Oq yo'l yo'lga chiqayotgan kishiga xavf-xatarga yo'liqmasligini tilab aytiladigan ibora. Misollar: Tadbirda davlat va jamoat tashkilotlari vakillari va ziyoratchilarning yaqinlari ishtrok etib, muborak safarga o'tlanayotganlarga *oq yo'l* tilashdi(Z.,10.03.2015,4-bet).

“Zarafshon” elektr tarmoqlari korxonasi boshlig'I va uning hamtovoqlari g'ayrioddiy kelishuvlarga *suyagi yo'q* chiqib qoldi(Z.,22.10.2013,2-bet).

Shu tariqa korxona tobora *qarizdorlik botqog'iga* botib borardi(Z.,22.10.2013, 2-bet).

Barchamiz *bir yoqadan bosh chiqarib*, keng jamoatchilik ishtirokida to'y-marakalarni o'tkazishga jiddiy qaragan holda eng avvalo, mahallalarda faol kishilarning, oilalarida ota-onalarning ma'sulyatini oshirishimiz zarur (Z.,22.10.2013, 3-bet). Xalqimiz *boshini biriktirish*, kelajakka ishonch uyg'otish va davlatimizni mustabid tuzum iskanjasidan ozod etish uchun elparvar, qat'iyatli va jasur Prezidentimizni bizga bosh qildi(Z.,14.03.2015,3-bet).

Nima emish, o'sha to'y quda tomoni qarindoshlariniki bo'lib, ularning oldida *past ketgisi kelmay* shunday qilibdi(Z.,22.10.2013, 3-bet).

Prof.Sh.Rahmatullayevning fikricha, “hozirgi o'zbek tilidagi iboralarda lug'aviy ma'noning taraqqiyoti asosan metofara yo'li bilan ko'chirish natijasida voqe bo'lgan”.⁴¹ Ko'p ma'noli somatic frazemalar lug'atlarda hozirgi kunga qadar turlicha izohlanmoqda. Masalan, “ko'z” somatizmi ishtirokidagi frazemalar

⁴¹ Йулдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографияси масалалари. –Тошкент: 2013, 183-бет.

lugʻatlarda salmoqli oʻrin egallaydi. “Oʻzbek tili izohli lugʻati” da “koʻz ” soʻzi qatnashgan 80 dan ortiq somatik frazema qayd etilgan. “Oʻzbek tili frazeologik lugʻati”da 158 ta shunday frazema mavjudligi qayd etilgan. Agar biz bu lugʻatlarda keltirilgan “koʻz” somatizmi ishtirokidagi frazemalarning barcha variantlarini ham inobatga oladigan boʻlsak, ularning umumiy soni 190 dan ortadi. A.Isayev “Oʻzbek tilida somatik frazeologizmlar ” nomli tadqiqotida “koʻz ” komponentli frazemalar tilimizda 127 ta ekanligini qayd qiladi. Uning taʼkidlashicha “koʻz ” komponentli frazemalar mahsuldorligi jihatidan rus tilida ikkinchi oʻrinni, turkman tilida beshinchi oʻrinni, latish tilida ikkinchi, ingliz va nemis tillarida uchinchi oʻrinni egallaydi. Kuzatishlar shu natijani koʻrsatadiki, “koʻz ” komponentli frazemalarning 15 tasi polisemantik xususiyatga ega. Shundan bittasi toʻrt maʼnoli (“koʻz qismoq”), ikkitasi uch maʼnoli (“koʻzi qiymadi”, “koʻz tikmoq”) qolgan oʻn ikkitasi (“koʻzga ilinmoq”, “koʻzga koʻrinmoq”, “koʻzga tashlanmoq”, “koʻziga issiq koʻrinmoq”, “koʻziga koʻrinmaslik”, “koʻzidan oʻt chiqib ketdi”, “koʻzi tindi”, “koʻzi toʻymaydi”, “koʻzi qamashdi”, “koʻzlari qinidan chiqib keta yozdi”, “koʻzini olaytirmoq”, “koʻz oʻngida”) ikki maʼnoli polisemantik frazemaadir.

Yuqoridagilardan maʼlum boʻladiki, frazeologik sinonimlar ham gazeta tili uchun muhim ahamiyat kasb etar ekan ularni oʻz oʻz oʻrnida qoʻllanishi ham muhimdir. Har bir leksik-frazeologik sinonimlar matn ichida kelib publisistikaning turli janrlarida faol qoʻllaniladi. Masalan, maqola janrida kelgan quydagi *koʻzga tashlanmoq* leksik-frazeologik sinonimlarga eʼtibor qaratsak.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da bugungi taʼlimni jahon andazalariga mos ravishda tashkil qilish, eskicha qogʻozbozlikdan qochish talab qilinayotgan boʻlsa-da kamchiliklar *koʻzga tashlanmoqda* (Z.,22.10.2103, 4-bet). Salqin ishkomb ostidagi chorpoyada huzur qilib yonboshlab yotar ekanman, chol-u kampirning ahil- inoqligiga havasim keldi. Hoynohoy tobroʻy tomonda sabzi, piyoz,koʻkatlar, kartoshka, pomidor ekinlari *koʻzga tashlanadi* (Z.,8.07.2014, 1-bet)

“*Ko‘zdan kechirmoq*” frazeologik sinonimga Sh.Rahmatullayevning “ O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”⁴² da quydagicha izohlangan. “*Ko‘zdan kechirmoq*” kim nimani yoki kimni qarab chiqmoq, birma-bir ko‘rmoq, sinchiklab tanishmoq. Varianti: ko‘zdan kechirilmoq nima; ko‘z(i)dan kechirmoq kim o‘zining\ nimani; ko‘zdan o‘tkazmoq; ko‘z(i)dan o‘tkazmoq kim [o‘zining] nimani; nazardan o‘tkazmoq; nazar(i)dan o‘tkazmoq kim [o‘zining) nimani. Tabib hammasini bir-bir *ko‘zdan kechirdi-da*, o‘ylanib qoldi. A. Qahhor. Ko‘r ko‘zning ochilishi. To‘xta xola bir chekkada o‘tirib, to‘planganlarni *ko‘zdan kechirdi*. I. Rahim. Chin muhabbat. Tok va boshqa mevalar ro‘yxati *ko‘zdan kechirilib*, hamma bir fikrga kelgach... S. Nazar. Yashil boylik. Bu kungacha ichini ko‘rmagan bu uyning har tomonini ko‘zidan kechirdi. S.Ayniy. Kim yaxshi ishlayapti, kim yomon — bularning hammasini *ko‘zidan o‘tkazib* turadi. Oydin. Yamoqchi ko‘chdi. U so‘ri yoniga kelganida birdan to‘xtab, xotinlarni nazardan o‘tkazdi.Sh. Toshmatov. Erk qushi.

Gazeta tilida “ko‘zdan kechirmoq” frazeologik sinonimi (e‘tibor bermoq, nazar solmoq, ko‘rmoq) kabi frazeologik sinonimlar bilan yonma-yon qo‘llaniladi.

Ba‘zan leksik- frazeologik sinonimlar gazeta janrining hammasida ham qo‘llanavermaydi. Chunki, matnda anglatgan ma’no yuzaga kelmasiligi mumkindir. Shuning uchun leksik-frazeologik sinonimlar asosan esse va turli mavzulardagi maqola janrlarida o‘z aksini topadi. Masalan,Otam ishimizni *ko‘zdan kechirib*, maslahatlarini beradilar (Z.,17.01.2015, 5-bet).

Shuningdek gazeta tilida ifodalanayotgan *ko‘zda tutilgan* leksik- frazeologik sinonimlar mazmuniga binoan qo‘llanilgan. Bunda matinga ematsionallikni ifodalash uchun (rejalashtirmoqda) leksikasi ma’nosini ifodalab kelgan. Masalan,Bundan tashqari, aholi gavjum joylarda duradgorlik ustaxonalari, navoyxonalar qurish ham *ko‘zda tutilgan* (Z.,17.01.2015, 4-bet).

⁴² Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик лугати. –Тошкент: 1992, -314 бет .

Gazeta reportaj janrida ishlatilgan leksik- frazeologik sinonim soʻzlardan ayrimlarining badiiy uslubga xos variantlar ham ishlatilganki, ular matnning obrazlilikini taʼminlagan. Masalan, Taʼlim tizimidagi oʻzgarishlarni koʻrib, *koʻz quvnaydi* (Z.,2.04.2015,1-bet).

Bu leksik-frazeologik sinonimlar gazeta tilida oʻz mazmun mohiyatiga binoan matinni aniq yoritish uchun qoʻllanilgan. Chunki bu kabi leksik-frazeologik sinonimlar har doim ham biz koʻzlagam maʼnoda kelavermasligi mumkin boʻladi. Shunday ekan, har bir leksik-frazeologik sinonimlarga uning anglatgan maʼnosiga qarab ishlatilishi lozim boʻladi.

Oʻzbek tilida “quloq” somatizmi asosida shakillangan toʻrtta frazema (*quloq solmoq, qulogʻiga kirmaslik, qulogʻiga quymoq, qulogʻini burab qoʻymq*) kabi polisemantik xususiyatiga ega. Bu frazemalarning barchasi ikki maʼnolidir. Shulardan biri qulogʻiga quyoq frazemasini boʻlib, “Oʻzbek tili frazeologik lugʻati”da quydagi ikki maʼnosi qayd etilgan: 1) gap oʻqtirmoq; 2) xotirasida mustahkam saqlamoq maʼnolarini ifodalagan.

“Quloq solmoq” somatik frazemasini “Oʻzbek tili frazeologik lugʻati”da quydagi ikki maʼnoli frazema sifatida izohlangan: 1) tinglamoq; 2) aytganini qilmoq kabi maʼnolarni ifodalab kelmoqda.

Gazeta tilida ham bu kabi frazeologik sinonimlar publisistikaning reportaj janrida ishlatilgan soʻzlardan ayrimlarining badiiy uslubga xos variantlar ham ishlatilganki, ular matnning obrazlilikini taʼminlagan. Masalan, Ota yoki ona toʻgʻri yoʻlga boshqarayaptimi, bola unga *quloq solishi* shart (Z.,18.02.2012,2-bet). Bobomning gaplariga *quloq solib* turarkanman, notoʻgʻri ish qilganimni tushundim (Z.,22.10.2103,4-bet).

Bu kabi leksik-frazeologik sinonimlar gazeta tilida koʻp shakillari turli maʼnolarini izohlab keladi. “Oʻtakasi yorilmoq” leksik-frazeologik sinonimi “qoʻrqmoq” maʼnosini ifodalaydi. Maqola janrlarda ham leksik-frazeologik sinonimlar oʻz mazmuniga muvofiq qoʻllanilmoqda. Masalan,Tong sahada yigʻlashimni eshitib, *oyimning oʻtakasi yorildi* (Z.,22.10.2013, 4-bet).

Leksik-frazeologik sinonimlarning emotsional-ekspressiv ma'nolilarini matnda ishlatish ta'sirchanlik va yorqinlikka xizmat qiladi. Misollar:Hammasiga mana, yangangiz ko'ndalang, yana qo'lidagi kapkir bilan kerilib, *ko'ksiga nuqsib qo'ydi* (Z.,8.07.2014,1-bet). Oh, oh, *qo'ling dard ko'rmasin* kampir, har kuni shunday palovxonto'ra bilan siylab tursang ekan (Z.,8.07.2104,2-bet). Kampir qoshlarini chimirib, cholga *yovqarash qildi* (Z.,8.07.2104,2-bet).

Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati"⁴³ da quydagicha izohlangan. *Barmog'(i)ni tishlamoq* kim \o'zining\ hech narsa qilolmay, natijaga erisha olmay *lol qolmoq*. Dushmanlar,raqiblar barmoqlarini tishlab qolsalar , maqsadga yetishgan bo'lardi. Oybek. Nur qidirib. Gazetada bosilgan rasmiy axborotlarda *lol qolmoq* frazeologik sinonim so'zlari faol ishlatilgan. Masalan: Ikkinchi jahon urushida qatnashib, qaryib qirq yildan buyon pensiyada ekani va davlat tomonidan pensiya to'lanishini aytganda, mehmonlar butunlay *lol qoldi* (Z.,14.03.2015,3-bet).

Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati"⁴⁴ da quydagicha izohlangan. *Qo'l(i)ni bog'lamoq* kim yoki nima kimning qo'l(i) bog'landi kimning faoliyatini cheklab qo'ymoq, biror ish-tadbirning amalga oshuviga monelik qilmoq. Men sira tushunmay qoldim, nega ilmdan hurkasiz? Olimlar *qo'lingizni bog'layaptimi?* Yo'q, xotirjam bo'ling, boshingizga zarracha tashvish ortmaydi ular. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. G'ulomjonning Zamon, Barot polvon kabi devsfat do'stlari, tog' qazuvchilarning G'ulomjonga bo'lgan mehr-u muhabbatlari mingboshining *qo'lini bog'lab* kelardi. Ismoiliiy. Farg'ona tong otguncha. Kosib chorshanba kuni bozor qilmasa, bir haftagacha *qo'li bog'lanib* qoladi . Oybek. Qutlug' qon.

Gazeta matnlarida, ayniqsa, muammoli maqola va bayram tadbirlari munosabati bilan yozilgan reportajlarda *qo'li bog'langan* leksik-frazeologik

⁴³ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик лугати. –Тошкент: 1992, -218 бет.

⁴⁴ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик лугати. –Тошкент: 1992, -412 бет.

sinonim faol ishlatilgan. Misollar: To‘g‘ri, ilgari ham respublika edik, lekin bu respublikaning *qo‘li bog‘langan, og‘zi berkitilgan* edi(Z.,14.03.2015,3-bet).

Rahna solmoq Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”⁴⁵ da quydagicha izohlangan. *Rahna solmoq* kim nimaga buzilishiga, parchalanishiga olib keladigan ta’sir ko‘rsatmoq Sharifning do‘sti E‘hsonni qo‘lga olish mustahkam qo‘rg‘on — shahar partiya komitetiga *rahna solishi* kerak edi. A. Qahhor. Sarob. Dilbar gruppamiz studentlarining kechasida mening ham boshqalardek o‘ynab-kulishimni iltimos qildi, chunki men qovog‘imni solib o‘tirsam, hammaning g‘ashiga tegib, umumiy quvonchli kayfiyatga *rahna solishligimni* aytdi. O. Equbov. Yangi yil kechasida. Rashk(i) qildi kimning kimga hasad, g‘ayirlik tuyg‘usi namoyon bo‘ldi.

Gazeta tilida *rahna solmoq* leksik-frazeologik sinonimi reportaj va lavhalarda uchratish mumkin. Misol: Bunday g‘araz niyatli kimsalarning maqsadi o‘zora nizolar, qurolli to‘qnashuvlar orqali tinch hayotga *rahna solishdir* (Z.,14.03.2015,3-bet).

Aytish mumkinki, mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan bu avtomobillar *dunyo andazalariga mos keladi*(Z.,14.03.2015,4-bet).

U ham bo‘lsa, odam *quyma quloq* bo‘lishi, bir narsani eshitdimi xotirada saqlay bilishi kerak(Z.,18.02.2012,2-bet).

Qo‘lga kiritmoq kim — *Qo‘lga kiritmoq* kim nimani ixtiyoriga o‘tmoq. Egallamoq (keyingi variant rasmiy). Varianti: qo‘lga kiritilmoq nima; *qo‘lga kirgizmoq*; *qo‘l(n)ga kirgizmoq* kim [o‘zining] nimani; qo‘lga kirgizilmoq nima. Antonimi: *qo‘ldan ketmoq* nima — qo‘ldan ketkazmoq nima nimani; qo‘ldan chiqmoq nima yoki kim — qo‘ldan chiqarmoq kim nimani yoki kimni yonveri bilan qo‘shilib bir tanobdan mo‘l er qo‘lg a kiradi. Boplab kunda kovla, ildizi qolmasin, uqdingmi? Oybek. Qutlug‘ qon. Pul topildi. Ovli qo‘lga kiritildi. Kuzning

⁴⁵ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик лугати. —Тошкент: 1992, -314 бет .

o'rtalarida uning shikast-rextlarini tuzatib, Saidiy ko'chib ketdi. A. Qahhor. Sarob. Bolta ko'pas .. qoratuproq yerlarning barisini qo' lga kirgizib oldi-ya! M. Ismoil. Farg'ona tong otguncha. U uy-joyini, maishatini ko'rsatish bilan maqtanmoqchi emas, chunki *qo'lga kirgizgan* narsasi o'z qadr-qiymatidan yuqori bo'lgan odam maqtanadi. A. Qahhor. Yillar. Bir tomondan, mazkur maqola asosida, *qo'lga kirgizilgan* yutuqlarni mustahkamlash lozim bo'lsa, ikkinchi tomondan... S. Ayniy. Qullar.

Gazeta matnlarida, ayniqsa, muammoli maqola va bayram tadbirlari munosabati bilan yozilgan reportajlarda *qo'lga kirgizmoq* leksik-frazeologik sinonim faol ishlatilgan. Misollar: Yigit-qizlarimiz bir mutaxassislikni *qo'lga kiritish* jarayonida boshqa sohalar haqida ham tushunchaga ega bo'lishadi (Z.,18.02.2012,2-bet).

Oilaning mustahkam bo'lishida ana shu jihatlarga ahamiyat berilsa, voyaga yetkazayotgan farzandingiz hech qachon *yuzingizni yerga qaratmaydi* (Z.,18.02.2012,2-bet).

Maqolada keltirilganidek, to'y –marakada, tug'ilgan kunlar tadbirida bo'lar-bo'lmasga va'zxonlik qilish, bir kishini *ko'klarga kotarish* bor gap (Z.,7.10.2014,4-bet).

Darvozani qayerdan, nimasidan boshlamoq kerak, *boshim qotgandi* (Z.,17.01.2015, 5-bet).

Ba'zan kutilmagan zarbalardan esankirab qolamiz, *dunyo ko'zimizga tor ko'rinib*, asablarimiz dosh bermay qoladi (Z.,17.01.2015, 4-bet).

Ekspressiv-baho va funksional uslibiy bo'yoqdorlik xususiyatiga ega bo'lgan frazeologik sinonimlar so'zlashuv, publisistik va badiiy uslubda so'zlovchiga o'z fikrlarini obrazli va ixcham shakilda ifodalash imkoniyatini yaratadi.

Kuzatishlardan ma'lumki, frazemalar tilda tayyor, yaxlit holda mavjudligi sababli bir qarashda ularning sturuktural tartibi o'zgarmasdek tuyulsa-da, ammo

soʻzlashuv nutqida, ayniqsa, badiiy asarlarda, publisistik nutqda oddiy qoʻllanilishdan tashqari yozuvchining badiiy mahorati tufayli maʼlum tashqi – stuktural va ichki –semantik oʻzgarishlarga uchraydi, natijada u yangi-yangi maʼno nozikliklarga ega boʻladi.

XULOSA

Ommaviy axborot vositalari orasida gazeta adabiy tilning imkoniyatlarini namoyish etuvchi muhim manbalardan biri hisoblanadi. Gazeta tilini o'rganish adabiy til imkoniyatlaridan gazetalarda qanday foydalanilayotganligini baholash nutq madaniyatini oshirishda katta ahamiyatga ega. Shuni hisobga olib, ma'lum bir gazeta materiallari asosida uning tilini o'rganish dolzarb vazifalardan sanaladi.

Publisistik uslub jamiyat ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotini yoritishda katta imkoniyatlarga ega. Mazkur uslubning asosiy vazifasi axborotni tezkor, xolis, haqqoniy, ta'sirchan yetkazish bilan birga kishilarning dam olishi, ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasiga ham ma'lum ta'sir o'tkazishdan iborat.

O'zbek tilshunosligida gazeta tilini o'rganish sohasida bir qator ishlar yaratilgan. Gazeta tili va uslubini tadqiq etish sohasidagi tadqiqotlarda boshqa masalalar qatori, masalan, gazetada emotsionallik va ekspressivlikni ifodalash va jurnalistning tildan foydalanish mahorati kabi masalalar doirasida sinonimlar haqida ham fikrlar bildirilgan. Publisistik matnlarning stilistik xususiyatlari va lingvopoetik munosabatlari hamda nutqiy muloqotga oid jihatlari, ularda so'z qo'llash mahorati, leksik, frazeologik, gap qismlarining mazmun jihatidan o'zaro bog'lanishi, matn tarkibining statistik tahlili kabi masalalarga qaratilgan.

Mazkur malakaviy bitiruv ishidan kelgusida referat va kurs ishlari yozishda, mavzu bo'yicha nomzodlik ishi olib borishda foydalanish mumkin. Chunki publisistik matnda frazeologizmlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, uni atroflicha ilmiy tadqiq etish o'zbek tilshunosligida publisistika sohasida yaratilayotgan ishlar uchun boy manba sifatida xizmat qila oladi.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

Ижтимоий-сиёсий адабиётлар:

1. КАРИМОВ И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.
2. МАМЛАКАТИМИЗДА демократик ислохотларни янада чуқур-лаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Президент Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг кўшма мажлисидаги маърузаси. 12 декабрь 2010 йил. «Халқ сўзи» газетаси.

Илмий адабиётлар:

Вафоева М. Ўзбек тилида фразеологик синонимлар ва уларнинг структурал-семантик таҳлили. Филол.ф.н. дисс. автореферати. – Тошкент: 2009. - 26 бет.

Жамолхонов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили, 2-қисм. Лексикология ва Фразеология. Лексикография. – Тошкент, 2004. Ушбу китоб бўйича маълумотлар Интернет – Ziynet тармоғидан олинди.

Жамолхонов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили, 2-қисм. Лексикология ва Фразеология. Лексикография. – Тошкент, 2004. Ушбу китоб бўйича маълумотлар Интернет –Ziynet тармоғидан олинди.

Йулдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографияси масалалари. – Тошкент: 2013, 52-бет.

Йулдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографияси масалалари. – Тошкент: 2013, 183-бет.

Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. Монография. (Масъул муҳаррир – Ўзбекистонда хизмат кўрсатган фан арбоби, филология фанлари доктори, профессор Раҳматулла Қўнғуров). – Самарқанд: «Зарафшон» нашриёти, 1992. -140 бет.

Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. - Тошкент: “Mumtoz so`z”, 2010, 189-215-бетлар.

Орифжонова Ш.А. Ўзбек тилида луғовий градуонимия. Филол. фан. номз. .дисс. автореф. – Тошкент: 1996, 6-бет.

Охунжонова О. Таълим босқичларида синонимлар мавзусини ўқитиш методикаси. Педагогика фанлари номзоди дис. автореферати. – Тошкент: 2009, 8-бет.

Охунжонова О. Таълим босқичларида синонимлар мавзусини ўқитиш методикаси. Педагогика фанлари номзоди дис. автореферати. – Тошкент: 2009, 8-бет.

Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изохли фразеологик лугати. – Тошкент: 1992, -314 бет .

Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. - Тошкент: Фан, 1966. 47-131 бетлар.

Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. - Тошкент: Фан, 1966. - Б. 131.

Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. - Тошкент: Фан, 1966. – 131 бет.

Таджиев Ё. Синонимия словообразующие аффиксов с значением "еаличие-отсутствие" в современном узбекском языке. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. –Ташкент, 1974. Таджиев Ё. Аффиксальная синонимия в узбекском языке. Автореф. дисс. ...докт. филол. наук. –Тошкент, 1991.

Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ўша асар. - 31-бет.

Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан, 1992. 113-117 бетлар.

Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1965. – 160 бет.

Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 2-нашри. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975, 30- бет.

Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 3-жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 514-бет.

Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. – Тошкент: 330-бет .

Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. – Тошкент. 332-бет.

Ҳожиёв А. Семасиология.// Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – 198 бет.

Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: 1974, 12- бет.

Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – 308 бет. Данияров А.Стилистические функции синонимов в современном узбекском языке: Автореф.дис....канд.филол.наук. – Самарканд, 1966. – 18 с. Исамухамедова С. Синонимы в современном узбекском языке: Автореф.дис....канд.филол.наук.- Ташкент, 1963.

Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – 308 бет.

Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – 308 бет.

Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг қисқача луғати. - Тошкент: Фан, 1963, 74-бет.

Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг қисқача луғати. - Тошкент: Фан, 1963, 85-бет.

Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983, 45-46-бетлар.

3. АБДУЛЛАЕВ А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. – Тошкент: Фан. 1987. - 88 б.
4. АБДУАЗИЗОВА Н. Мустақил Ўзбекистон журналистикаси тарихи. – Тошкент: Академия, 2002.
5. АБДУАЗИЗОВА Н. Мустақил Ўзбекистон журналистикаси тарихи. – Тошкент: Академия, 2007.
6. АБДУСАИДОВ А. Газета тилида фразеологизмлар. – Самарқанд: СамДУ. 1990. – 120 б.
7. АБДУСАИДОВ А. Газета тилининг лексик-стилистик хусусиятлари. – Самарқанд: СамДУ. 1991. – 80 б.
8. АБДУСАИДОВ А. Лексик дублетлар ва уларнинг изоҳи (газета материаллари асосида). – Самарқанд: СамДУ. 1993. – 96 б.
9. АБДУСАИДОВ А. Туркий изофали конструкцияли газета сарлавҳалари. // Ўзбек тили грамматик қурилиши масалалари. - Самарқанд: СамДУ, 1984, 60-66-бетлар
10. АБДУСАИДОВ А. Газета сарлавҳаси (Газета сарлавҳаларининг структур-грамматик ва лексик-стилистик хусусиятлари). – Самарқанд: СамДУ, 1995. – 120 б.
11. АБДУСАИДОВ А. Газета жанрларининг тили ва услуби. Монография. – Самарқанд, 2001. – 192 б.
12. АБДУСАИДОВ А. Журналистнинг тилдан фойдаланиш маҳорати. Монография. – Самарқанд. 2004. – 102 б.
13. АБДУСАИДОВ А. Матбуотда адабий нормага риоя қилиш муаммолари. – Самарқанд, 2001. – 56 б.
14. АБДУСАИДОВ А. Фразеологизмлар – матбуот тилида таъсирчан восита. – Самарқанд, 2001. – 48 б.
15. АБДУСАИДОВ А. Матбуот тили маданияти. – Самарқанд, 2002. – 96 б.
16. АБДУСАИДОВ А. Таъсирчанлик – асосий мезон. // «Ўзбекистон матбуоти» ж. 2002. 1-сон, 30-32-б.
17. АБДУСАИДОВ А. Тил ва журналист. // «Ўзбекистон матбуоти» ж. 2002. 5-сон, 10-13-б.
18. АБДУСАИДОВ А. Журналист маҳорати. // «Ўзбекистон матбуоти» ж. 2003. 3-сон, 5-7-б.
19. АБДУСАИДОВ А. Журналист маҳорати. // «Ўзбекистон матбуоти» ж. 2003. 4-5-сонлар, 16-17-б.
20. АБДУСАИДОВ А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Филол.фан.докт...дис.автореферати. – Тошкент, 2005. - 48 б.
21. АБДУСАИДОВ А. Ўзбек тилининг ижтимоий моҳияти. – Самарқанд, 2008.
22. АБДУСАИДОВ А. Тил маънавияти ва нутқ маданияти. ахборот соҳасини ислоҳ қилиш. Рисола. Мақолалар тўплами. – Самарқанд: СамДУ, 2011. – 98 бет.

23. АХМЕДОВ А. Ўзбек тилида гапнинг коммуникатив турлари. – Тошкент: Фан, 1979.
24. БАДИЙИ публицистика жанрлари. – Тошкент: Зар Қалам, 2004.
25. БЕГМАТОВ Э., БОБОЕВА А., АСОМИДДИНОВА И. Адабий норма ва нутқ маданияти. – Тошкент: Фан, 1983. – 152 б.
26. БЕГМАТОВ Э., МАМАТОВ А. Адабий норма назарияси. (Адабий норманинг типлари). – Тошкент, 1998, II қисм. – 134 б.
27. БЕГМАТОВ Э., МАМАТОВ А. Адабий норма назарияси. (Адабий норманинг шаклланиши ва яшаш қонуниятлари). – Тошкент, 1999, III қисм. – 140 б.
28. БЕКМИРЗАЕВ Н. Нутқ маданияти ва нотиклик асослари. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Фан, 2007. – 156 б.
29. БОБОЕВА А. Газета тили ҳақида. – Тошкент: Фан, 1983. – 55 б.
30. БОБОЕВА А. Газета сарлавҳалари ҳақида. // «Ўзбек тили ва адабиёти» журнали, 1971, 2-сон, 61-63-бетлар
31. ДОНИЁРОВ Х., ЙЎЛДОШЕВ Б. Адабий тил ва бадиий стиль. – Тошкент: Фан, 1988. – 208 б.
32. ДОСМУҲАМЕДОВ Х.Н. Журналистнинг касб одоби муаммолари: назарий-методологик таҳлил (Мустақиллик даври ўзбек матбуоти фаолияти мисолида. 1991-2008 йиллар): Филол.фан.докт.... дис. автореф. – Тошкент: ЎзМУ, 2008. – 48 б.
33. ДЎСТМУҲАМЕДОВ Х.Н. Оммавий ахборот воситаларини ривожлантиришнинг демократик андозалари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005.
34. ЖУРНАЛИСТларнинг касб одоби муаммолари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2008.
35. ЙЎЛДОШЕВ Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол.фан.докт. ...дис. автореф. - Тошкент, 1993. - 49 б.
36. ЙЎЛДОШЕВ Б., МИРЗАЕВ Б. Ўзбек тилида фразеологизм сарлавҳаларнинг стилистик хусусиятлари ҳақида (Матбуот материаллари асосида). // Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маданияти масалалари. / СамДУ асарлари. - Самарқанд, 1982, 109-114-бетлар.
37. КАРИМОВ С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. Монография. – Самарқанд: «Зарафшон» нашриёти, 1992. - 140 бет.
38. МАҲКАМОВ Н. Адабий норма ва плеоназм. – Тошкент: Фан, 1988. – 94 б.
39. МИРЗАЕВ Б. От туркумига хос бўлган сўзларнинг газета сарлавҳалари функциясида стилистик мақсадларда қўлланишига доир. // Ўзбек тили стилистикасидан кузатишлар. / СамДУ асарлари. - Самарқанд, 1983, 75-77-бетлар.
40. МУСТАҚИЛ Ўзбекистон журналистикаси тарихи. – Тошкент: Akademiya, 2007.
41. МУКАРРАМОВ М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. – Тошкент: Фан, 1984.

42. МАТБУОТ ва сўз эркинлиги – олий қадрият. – Тошкент: Akademiya, 2006.
43. НЕЪМАТОВ Х., РАСУЛОВ Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент, 1995.
44. РАСУЛОВ Р. Умумий тилшунослик. – Тошкент, 2006.
45. РАҲМАТУЛЛАЕВ Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент, 1978.
46. ОММАВИЙ ахборот воситалари типологияси. – Тошкент: ЎзМУ, 2000.
47. ОММАВИЙ ахборот воситалари назарияси. – Тошкент: Университет, 1999.
48. ОММАВИЙ ахборот воситалари тўғрисида Ўзбекистон Республикаси қонуни. 1997 йил 26 декабрь. // Ўзбекистон Республикасида оммавий ахборот воситаларининг фаолиятини мувофиқлаштиришга доир қонунлар. – Тошкент. 1998. 8-17-б.
49. САИДОВ У. Глобаллашув ва маданиятлараро мулоқот. – Тошкент: Академия, 2008. – 232 б.
50. ТЕШАБОВЕВА Д. Оммавий ахборот воситаларида нутқ маданияти. – Тошкент: Фан ва технология, 2011.
51. ТОЖИЕВ Ё., МАЛЛАБОВЕВ М. Ўзбек нутқи маданияти ва услубияти асослари. 1-қисм. – Тошкент, 2006, 8-14-б.
52. ТОҒАЕВ О. Ўзбек бадиий публицистикаси (назария ва маҳорат масалалари). - Тошкент: Фан, 1973. – 154 б.
53. ТОҒАЕВ О. Публицистика жанрлари (Хат, очерк, фельетон). - Тошкент: Ўқитувчи, 1976. - 180 б.
54. ТОҒАЕВ О. Ўзбек бадиий публицистикаси(назария ва маҳорат масалалари): Филол.фан.докт. ...дис.автореф. – Тошкент, 1972. – 52 б.
55. ТОШАЛИЕВ И. Сарлавҳа стилистикаси. - Тошкент, 1995. – 96 б.
56. ТЎРАБЕКОВА С. Тил ва услуб. - Тошкент:Ўзадабийнашр, 1963.
57. УСАРОВ О. Оммавий ахборот воситаларида суд процессларини ёритиш муаммолари (назарий-методологик таҳлил). Филол.фан.номз. дис.автореферати. – Тошкент, 2009. – 27 б.
58. ХУДАЙҚУЛОВ М. Журналистика ва публицистика. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Университет, 2008.
59. ШАРАФИДДИНОВ О. Она тилим – ифтихорим, инжа ганжинам. // Ўзбекистон овози, 2003. 2, 4, 6, 11 декабрь.
60. ШОМАҚСУДОВ А., РАСУЛОВ И., ҚЎНҒУРОВ Р., РУСТАМОВ Х. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983.
61. ШОМАҚСУДОВ А., ТОШАЛИЕВ И., РУСТАМОВ П. Сарлавҳа ва унинг функцияси. // Ўзбек тилшунослиги масалалари./ ТошДУ илмий асарлари. 475-чиқиши. – Тошкент, 1975, 149-166-бетлар.
62. ШОМАҚСУДОВ А., ТОШАЛИЕВ И., РУСТАМОВ П. Газета сарлавҳаларининг структур-грамматик хусусиятлари. // Ўзбек тили стилистикаси масалалари./ ТошДУ илмий асарлари. – Тошкент, 1975, 133-154-бетлар.

63. ШУКУРОВ Н. Услублар ва жанрлар. – Тошкент, 1973.
64. ЎЗБЕКИСТОН Республикасида оммавий ахборот воситаларининг фаолиятини мувофиқлаштиришга доир қонунлар. – Тошкент. 1998. – 65 б.
65. ЎЗБЕК ТИЛИнинг изоҳли луғати. I том. –Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, 2006. – 680 б.
66. ЎЗБЕК ТИЛИнинг изоҳли луғати. II том. –Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, 2006. - 672 б.
67. ЎЗБЕК ТИЛИнинг изоҳли луғати. III том. –Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, 2006. - 688 б.
68. ЎЗБЕК ТИЛИнинг изоҳли луғати. IV том. –Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, 2008. - 608 б.
69. ЎЗБЕК ТИЛИнинг изоҳли луғати. V том. –Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, 2008. - 592 б.
70. QO'NG'UROV R., BEGMATOV E., TOJIYEV G'. Nutq madaniyati va uslubi asoslari. – Toshkent: Fan, 1992.

Материал тўпланган манбалар:

71. ҚАҲҲОР А. Танланган асарлар. - Тошкент, 2007.
72. ҚАҲҲОР А. Повест ва ҳикоялар. – Тошкент, 1965.
73. ҒАФУР ҒУЛОМ. Мукаммал асарлар тўплами. – Тошкент: Фан, 1986.
74. ХОЛМИРЗАЕВ Ш. Танланган асарлар: 3 жилдлик. 1-жилд: Ҳикоялар. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2003. – 448 б.
75. “Халқ сўзи” газетаси.
76. “Зарафшон” газетаси.
77. “Самарқанд” газетаси.
78. “Даракчи” газетаси.